

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“PEDAGOGIKA” fakul`tet

«Pedagogika va psixologiya» kafedrası

«Pedagogika va psixologiya» ta`lim yo`nalishining 4^z - bosqich talabasi
Jumabaeva Arzıgul Urzımbaevnaning

**«Kichik maktab yoshidagi o`quvchilar xulq atvorining psixologik
xususiyatlari» mavzusida yozgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy raxbar:

Z.Sherimbetova

Kafedra mudiri:

Sh.Saparov

Nukus-2015 yil.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB Kichik maktab yoshidagi o`quvchilar xulq atvori shakllanishiga ta`sir etuvchi omillarning metodologik asoslari	11
1.1. Sharq mutafakkirlarining kichik maktab yoshidagi o`quvchilar xulq atvoriga ta`sir etuvchi milliy an`ana va tarbiya vositalari xususidagi qarashlari	11
1.2. Psixologiya fanida kichik maktab yoshidagi o`quvchilar xulq atvoriga ta`sir etuvchi ijtimoiy omillar tahlili	18
1.3. Kichik maktab yoshidagi o`quvchilar xulq atvoriga ta`sirini o`rganishning metodologiyasi	28
II BOB Kichik maktab yoshidagi o`quvchilar xulq atvorining psixologik xususiyatlarini o`rganishning empirik tadqiqot natijalari.....	39
2.1. Kichik maktab yoshidagi o`quvchilarning shaxs sifatleri va tasavvurlarini o`rganishning natijalari	39
2.2. Milliy an`analar ta`sirida kichik maktab yoshidagi o`quvchilarda xulq atvorini shakllanishi va namoyon bo`lish shartlarini tadqiq etish	48
2.3. Shakllantiruvchi eksperiment sharoitida ijobiy xulq atvorni taraqqiyotini o`rganish	57
Tavsiyalar	62
Xulosa.....	64
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati	67

KIRISH

O'zbekiston chinakam mustaqillikni qo'lga kiritib, taraqqiy etgan demokratik davlatlar qatorida xalqaro hamjamiyatda munosib o'rnini egallamoqda. O'zbekistonning mustaqillikga erishishi ilgari xukm surib kelayotgan siyosiy-iqtisodiy va tarbiyaviy tadbirlarga yangicha mazmun kiritadi. Ma'naviyat va ahloqiy poklikni qayta tiklash, xalqimizning milliy va madaniy merosiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, qadimiy va zamonaviy milliy madaniy boyliklarni bilish, milliy, tarixiy va madaniy meros, an'analar tajribasini ta'lim, tarbiya tizimiga kiritish bugungi kunning dolzarb vazifalaridir. Hozirgi davrda fuqorolarning ongiga mustaqillik, vatanparvarlik, sadoqat kabi tushunchalarni singdirish, ularni kelajakka buyuk davlatning munosib farzandlari qilib kamol toptirish zamon talabidir.

Har bir millatning ma'naviy boyligi umuminsoniy qadriyatlarning birligidan tashkil topadi. Madaniy meros o'tmishning yutug'i, uni to'la va oqilona egallash, takomillashtirish esa hozirgi zamon avlodlarining muqaddas vazifasidir. O'zining madaniy meroslarining, qadriyatlarini bilmaslik yoki mensimaslik esa millat va uning istiqboli uchun katta fojiaadir. «Jamiyat taraqqiyotining, asosiy, uni muqarrar falokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch ma'rifatdir».

Ma'naviyati yuksak darajada rivojlangan insongina istiqlool va mustaqillik uchun kurashda o'zida irodaviy kuch va qudrat topa olishi mumkin.

«Kim bo'lishidan qat'iy nazar, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa bunday odamlarni yo'ldan urush, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni xushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi». Jamiyatimizdagi ijtimoiy munosabatlar, siyosiy mafkuraviy yo'nalishlar tizimining o'zgarishi tufayli milliy xarakter xususiyatlar ham ularga mos ravishda o'zgarib boradi. Milliy xarakterning o'zgaruvchanlik xususiyatidan kelib chiqqan holda zarur vazifalarni vujudga keltirish yo'li bilan uni shakllantirishni uddalash muhim ahamiyatga ega. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "...ma'naviyat insonni ruhan poklanish, qalban

ulgʻayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-eʼtiqodini butun qiladigan, vijdonini uygʻotadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”.¹

Uzoq vaqlar mobaynida inson maʼnaviy dunyoqarashi, ahloqiy vaziyatlarni shakllanishi va shaxsning maʼnaviy kamoloti etika va pedagogika sohasidagi izlanishlarning predmeti boʻlib qolgan edi.

Bu masalaning psixologik jihatida borasidagi fikrlar koʻplab psixologlar, jumladan, taniqli rus psixologlari B.G. Ananʼev, L.I.Bojovich, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontʼev, S.L.Rubinshteyn va boshqalarning asarlarida xulq-atvor, maʼnaviy va ahloqiy xususiyatlari, ahloqiy xulq, ahloq motivlari, ehtiyojlari kabi qator ilmiy kategoriyalari doirasida ishlatiladigan boʻlsa-da, lekin shaxsdagi hulq atvor tasavvurlar va ularning shakllanish mexanizmlari va sotsial psixologik shart-sharoitlari muammosi maxsus ravishda tadqiqot qilinmagan.

Oʻzbeklarda va umuman, Sharq mamlakatlarida ahloqiy madaniyat, maʼnaviyat va ruhiyat masalalariga eʼtibor oʻziga xos qadriyatlar boʻlib kelganligi sababli ushbu muammolar bir qator faylasuflar, pedagoglar, ahloqshunoslar tomonidan oʻrganib kelingan. Oʻzbekistonlik psixologlardan M.G.Davletshin, E.G.Gʻoziev, Gʻ.B.Shoumarov, V.A.Tokareva, V.M.Karimova va ularning izdoshlari shaxsning ichki ruhiyatini xulq atvor va madaniy shart-sharoitlar, xususan, taʼlim muassasalari, oila va tengqurlar jamoasi taʼsirida shakllanishi muammolariga qisman eʼtiborni qaratib, ushbu sohadagi ilmiy muammolarni ochib berganlar. Ayniqsa, V.A.Tokareva birinchi boʻlib, talaba yoshlar shaxsining xulq atvor taraqqiyotini maxsus psixologik metodlar (birinchi navbatda longityud metodi) yordamida oʻrganib, xulq atvor tasavvurlar va ular zaminida turgan ahloqiy xulq - atvor hamda ularga boʻlgan ehtiyojlarni monografik tarzda jiddiy ilmiy izlanishlarning predmetiga aylantirgan. Lekin ilk oʻspirinlik davrida hulq atvor tushunchalar va tasavvurlarning shakllanishiga sabab boʻluvchi ijtimoiy omillar avvalo oʻzbek xalqining milliy anʼanalari va

¹ Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. T. Maʼnaviyat. 2008. 19-bet.

udumlari, qolaversa, maxsus shart-sharoitlar ta'lim-tarbiya jarayonlarning ushbu jarayonga ta'siri maxsus tadqiqotlar ob'ekti va predmetiga aylantirilmagan.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ta'lim va tarbiyaning dolzarb roli ortib boradi. Zero, ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatidagi yaratuvchanlik faolligini keltiruvchi uzluksiz jarayondir. O'sib kelayotgan avlod vakillarining barcha qulay imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasbiy tayyorgarligi, mahorati uzluksiz ravishda takomillashadi, ajdodlarning bebaho tajribasi ularga meros sifatida uzatiladi. Yoshlar, ularning iqtidorlik va bilim olishga layoqati, uquvchanligi ta'lim jarayonida takomillashadi va hulq atvor qadriyatlar tushunila boshlanadi. Har bir inson o'zicha takrorlanmasligi tufayli jamiyat har bir shaxsning xarakteri va o'ziga xosligini qo'llab - quvvatlaydi, uning madaniyatni yanada yuksak darajasiga ko'tarishga ta'sir etuvchi yangi fazilatlarini va hislatlarini umumlashtiradi. Zero, Prezidentimiz I.A.Karimovning o'z xalqiga, uning an'analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalamasdan turib, o'z xalqini millatlarning butun jahon hamjamiyatida tenglardan biri sifatida idrok qiluvchi haqiqiy insonni, o'z Vatanining jonkuyarini tarbiyalash mumkin emas, degan fikrlari izchil ravishda ilmiy tadqiqotlarni olib borishni talab qilmoqda. Mazkur g'oyalar «Ta'lim to'g'risida» gi Qonunda va «O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning milliy dasturi»da rivojlantirilgan bo'lib, ular muhim nazariy hamda metodologik ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda yoshlar tarbiyasi va ular hulq atvori ijobiy tarzda shakllantirishning dolzarbligidan kelib chiqib, biz tadqiqotning asosiga kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning shaxs hulq atvor fazilatlarining shakllanishiga sabab bo'luvchi ijtimoiy psixologik omillar, pedagogik shart-sharoitlarni belgilash va xulq atvor tasavvurlar, tushunchalarning bu borada psixologik mexanizm sifatida o'rni borligi g'oyasini oldik.

Turli taraqqiyot davrlarida inson psixologiyasi va shaxsi o'zgarishi qonunlaridan kelib chiqqan holda, biz kichik maktab yoshi davrini xulq atvor kategoriyalarni faol ravishda o'zlashtirish va shu asnoda xulq atvor tasavvurlar

shakllanishi uchun eng senzitiv-qulay davrdir, deb tanladik. Zero, aynin shu davrda shu davrda shaxsning o`zini o`rab turgan muhitdagi eng nodir xulq atvor qadriyatlarga nisbatan munosabatlari faollashadi, ularni o`zlashtirish orqali, hulk atvor tasavvurlarini va bilimlarini boyitish, uni his-tuyg`ulari va xatti-harakatlarida namoyon etishga psixologik jihatdan hozirlik kuchayadi. Bundan tashqari, ushbu davrda yoshlarning muloqot doirasi kengayadi, o`z-o`zini anglashi, o`z-o`zini nazorat qilishi, jamiyatda o`z o`rnini topish, ijtimoiy mafkuraviy masalalarga nisbatan qiziqishlari ortadi, jamiyatda sodir bo`layotgan o`zgarishlar, madaniyat va ma`naviyat sohasidagi barcha o`zgarishlarga munosabatlar tizimi sayqallashadi. Bu holatlarning barchasi mazkur yosh davrini **tadqiqotimiz ob`ekti** qilib tanlashga asos bo`ladi.

Tadqiqot ishidan ko`zlangan **asosiy maqsad** xalqimiz an`analari va maxsus ijtimoiy omillarning kichik yoshdagi o`quvchilarda xulq atvorni o`zgartiruvchan ta`sirini o`rganish va ushbu jarayonni eksperimental tarzda kuzatishdan iboratdir. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni amalga oshirishni rejalashtirdik.

-Xulq atvor muammosini nazariy tahlil qilish va uni psixologik fenomen sifatida aniqlash.

-Kichik maktab yoshidagi o`quvchilarning xulq atvorni o`ziga xosligini tadqiq etish.

- Kichik maktab yoshidagi o`quvchilardagi xulq atvorlariga ta`sir etuvchi va ularni o`zgartiruvchi ijtimoiy omillarni tadqiq etish va aniqlash.

Milliy an`ana va urf-odatlar mohiyatini o`z ichiga olgan xulq atvor tasavvurlarni shakllantiruvchi maxsus ta`lim jarayonidagi va darsdan tashqari amalga oshiriladigan ijtimoiy tadbirlar kompleksini aniqlash.

Kichik maktab yoshidagi o`quvchilar xulq atvor dunyoqarashi va tasavvurlari dinamikasini qayd etish.

**Tadqiqot ob`ekti**– Qoraqalpog`iston Respublikasi Nu`kus shaxar XTB muassasalarini metodik ta`minlash bo`limiga qarashlai №-18 maktabning boshlang`ich sinf o`quvchilari.

Tadqiqot predmeti– kichik maktab yoshidagi o`quvchilarda xulq atvor va ular ta`sirida o`zgargan xarakterdagi adaptiv hislatlar bo`lib, biz ularning orasida ma`naviyatni, milliy urf-odatlar ta`sirida o`zgargan tushuncha, munosabat va ijtimoiy xulqqa aloqador sifatlarni o`rganish.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy farazlar ilgari suriladi: taxminimizcha, aniq maqsad va mazmunga ega ijtimoiy ta`sirlar-ta`lim tizimiga va darsdan tashqari sharoitlarda tashkil etilgan tadbirlar, agar ular xalq milliy an`analari, urf-odatlari va qadriyatlari mazmun mohiyatini qamrab olgan bo`lsa, ular yoshlar xulq atvor tasavvurlari mazmunida aks etib, ular xulqini o`zgartiruvchi omilga aylanishi mumkin.

Tadqiqotning metodologik asosini O`zbekiston Respublikasi Prezidentining ma`naviyat va ma`rifatni takomillashtirish va hulq atvor va ma`rifiy tadbirlar samradorligini oshirish borasidagi Farmonlar, «Ta`lim to`g`risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi»dan hamda I.A.Karimovning «Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori», «O`zbekiston buyuk kelajak sari» asarlarida ilgari surilgan dasturiy vazifalar, psixologiya fanida qabul qilingan ijtimoiy tasavvurlar – shaxs ijtimoiy xulq-atvorining psixologik mexanizmi va sababchisidir, degan ilmiy nazariya (S.L.Rubinshten, A.N.Leontev, A.I.Dontsov va boshqalar) xizmat qiladi. Psixologik qonuniyatlar, ta`limotlar, tamoyillar ishimizning **nazariy asosi** bo`lib hisoblanadi.

Yuqoridagi metodologik asosga tayanib, kichik maktab yoshidagi o`quvchilarda xulq atvor tasavvurlarni shakllanish jarayonini quyidagi **metodlar** yordamida o`rgandik:

Kuzatish – o`quvchilarning dars va darsdan tashqari xulq-atvorlarini, o`zlari va o`zgalarga nisbatan munosabatlari hamda xulq atvor qadriyatlarning faol muloqot jarayonida namoyon bo`lishini aniqlash, qayd qilish maqsadida qo`llanildi.

Anketa – o`quvchilardagi hulq atvor tasavvurlar va tushunchalar mazmunini aniqlash maqsadida maxsus tarzda ishlab chiqildi.

Testlar – ma`naviyat va ijtimoiy xulqning eksperimentgacha va eksperimentlardan keyingi holatlarini aniqlash, ular shaxsidagi yaqqol fazilatlar va sifatlarda ko`rinishini qayd etish va o`lchash uchun T.Lirining «Xarakter xususiyati», T.Pashukoning «Shaxs egotsentrizmi», Ch.Oskudaning «Semantik differentsial» testlarini mahalliy sharoitga moslashtirilgan shakllari tavsiya etildi.

Tadqiqotning nazariy qiymati shundaki, unda to`plangan va tadqiq etilgan ma`lumotlar yosh davrlar psixologiyasi, pedagogika, ahloqshunoslik, ma`naviyat va ma`rifat asoslari. Etika va estetika darslarini muhim yangiliklar bilan boyitadi, xalq milliy an`analari va udumlaridan samarali foydalanish, ularning shaxs hulq atvor fazilatlarini shakllantirishdagi ahamiyatini ilmiy dalillar bilan boyitadi va qadriyatlarning ahamiyatini yanada oshiriladi. Tadqiqot ishida o`z isbotini olgan ilmiy farazlar psixologiyada ijtimoiy tasavvurlarning shaxs ijtimoiy xulqi motivlarini va uning namoyon bo`lish shart-sharoitlarini o`rganishda metodologik g`oya va ilmiy-psixologik mexanizm sifatida e`tirof etilishini ta`minlaydi hamda ta`kidlaydi.

Tadqiqot ishining yangiligi shundaki:

a) maqsadli xulq atvor-ma`rifiy tadbirlar o`quvchilarga ijtimoiy ta`sir vositalari sifatida ular psixikasi va ijtimoiy-xulq atvor tasavvurlariga ta`sir etuvchi mexanizmlar sifatida qaraldi va ularning o`zgarish omillari ilmiy jihatdan o`rganildi;

b) to`plangan ma`lumotlar yoshlar o`rtasida olib borilayoigan ko`plab madaniy-ma`rifiy tadbirlarning asosi va negizini tashkil etishi mumkin bo`lgan g`oyani – milliy an`analar va rasm-rusmlarning xalq ma`gaviy qadriyatiga aylanib qolgan qismining mazmunini aks ettirishi va ulardan yaqqol vaziyatlarda samarali foydalanish yo`llari ko`rsatildi.

v) shaxsdagi xulq atvor tushuncha va tasavvurlarni tadqiqotning predmetiga aylantirildi va mazkur tasavvurlarning aniq shaxslar va guruhlardagi xulq atvor fazilatlarda namoyon bo`lishi qonuniyatlarini ochib berdi.

Tadqiqotning **amaliy ahamiyati** quyidagilarni tashkil qiladi:

- Unda to'plangan ilmiy dalillar, xulosalar va tavsiyalar o'quvchilar o'rtasida olib boriladigan xulq atvor-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga ilmiy asos bo'ladi;

- Maktab o'quvchilarini ta'lim jarayonida va darsdan tashqari faoliyatlarini omilkorona tashkil etishda va xulq atvorini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi;

- Har bir maqsadga yo'naltirilgan tadbirlarda milliy an'analarimizda o'rinli foydalanish haqida zarur ma'lumot va eksperimental asos borligini ta'minlaydi;

- Amaliy psixologlar uchun maktab va yangi turdagi o'quv maskanlarida o'quvchi yoshlar xulq atvor dunyoqarashini to'g'ri shakllantirish borasida adaptiv hislatlarni shakllantirish va rivojlantirish yo'lida milliy an'analar va maqsadli tadbirlardan o'z o'rnida samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi. Ish kirish, II bob, xulosa, tavsiya va 59 nomda foydalanilgan adabiyotlarning ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 69 betdan tashkil topgan bo'lib, unda 6 ta jadval berilgan.

**I BOB. KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O`QUVCHILAR XULQ ATVORI
SHAKLLANISHIGA TA`SIR ETUVCHI OMILLARNING METODOLOGIK
ASOSLARI**

**1.1. Sharq mutafakkirlarining kichik maktab yoshidagi o`quvchilar xulq
atvoriga ta`sir etuvchi milliy an`ana va tarbiya vositalari xususidagi
qarashlari**

Inson ruhiyatining etnik xususiyatlari unda ijtimoiy ta`lim-tarbiya va muloqot ta`siri muammosi qadimdan jamiyatning eng ilg`or kishilari: olimlar, donishmandlar e`tiborini o`ziga tortib kelgan. Jumladan, Sharqning buyuk allomalari Abu Nosir Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Hos Hojib, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur, Muhammad Rizo Ogahiy, Muqumiy, Abdulla Avloniy kabi olim va fozillar bu masalalar yuzasidan o`zlarining durdona fikrlarini tarixda qoldirganlar. Bu fikrning hozirgi zamon fani uchun muhim ijtimoiy mafkuraviy ahamiyatga ega ekanligini inkor etib bo`lmaydi.

Sharq mutafakkirlari bola tarbiyasida va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning salohiyatini asosiy deb hisoblashgan. Ayniqsa, shaxsning aqliy va ahloqiy shakllanishida oila, ota-ona va yaqin kishilarning ibratli tomonlariga alohida e`tibor berishgan. Ular oiladagi urf-odatlar ta`sirida shakllanishi mumkin bo`lgan sifatlar: halollik, poklik, mardlik, kelishuvchanlik, uyatchanlik, sermulohazalilik, mehribonlik, haqgo`ylik kabi qator fazilatlarni barcha sifatlardan yuqori qo`yganlar. Insoniy munosabatlarda namoyon bo`ladigan yuksak fazilatlar, eng avvalo, ota-onadan bolaga o`tishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta`siri kabi qimmatli fikrlar va bu boradagi amaliy ko`rsatmalar Sharq mutafakkirlarining falsafiy-etuk, ijtimoiy qarashlarida o`z aksini topgan.

Ma`lumki, Islom dinining muqaddas manbalaridan bo`lmish Qur`oni Karim va Hadislarda ham odob, ahloq, bolalar tarbiyasi masalalariga keng o`rin berilgan.

«Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga ahloq-odobini ham yaxshilangiz».

«Hech bir ota-ona o'z farzandiga xulqi odobdan buyukroq meros bera olmaydi».

Bu keltirilgan namunalardan diniy manbalarda ham oilaning muqaddas ekanligi, ota-onaning farzand oldidagi, farzandning ota-ona oldidagi burchlari bayon etilgan. Musulmonchilik ruhida tarbiya topgan ota-bobolarimiz turmushda ularga amal qilingan. Bola tarbiyasida sharoit ko'rsatmalarining aks etishi, ularning xarakterida ijobiy sifatlarini tarkib topishiga ta'sir ko'rsatib, boshqa xalqlarga nisbatan musulmon ahli o'rtasida turli tartibsizliklar, jumladan, o'g'rilik, ta'magarlik, shaxs haqqiga xiyonat qilish kabi salbiy xatti-harakatlarning kam bo'lishi fikrimiz dalilidir.

Qomusiy olim Abu Nosir Farobiyning inson kamoloti, baxti, ta'lim-tarbiyasi, ahloqi, dinga munosabati haqidagi fikrlari umumfalsafiy, psixologik qarashlar va tushunchalardan tuzilgan o'git-nasihat bo'lib, ahloqiy tarbiya nazariyasini boyitadi. Olim har bir ota-onaning o'z farzandlari uchun birlamchi ustoz, yo'l ko'rsatuvchi sub'ekt ekanligi va aynan ular bolada ta'lim-tarbiyaga psixologik tayyorgarlik holatini shakllantirish to'g'risida xulosalar chiqaradi.

Farobiy «insonlar tarbiyasi, ularning xohish-istaklari, qarashlari faqat Olloh tomonidan beriladi» degan mutafakkirlar fikrlariga qarshi o'z fikrini «Iso-al-Ulum» kitobining oxirgi bo'limida quyidagicha bayon etadi: «Inson aqli faqat bilish bilan cheklanmaydi, balki odatlar va qarashlarni o'zining maqsadlariga bo'ysundira olishi va yo'naltirishi, o'zgartirishi ham mumkin», deb yozadi).

Qomusiy olim Abu Rayxon Beruniyning «Minerologiya», «Geodeziya», «Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar», «Hindiston», «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Saydana» kabi asarlarida pedagogika va psixologiya masalalariga oid g'oyatda qimmatli fikr-mulohazalar mavjuddir. U inson shaxsi, uning kamoloti fe'l-atvori, aql-idroki, sabr-toqat va kamtarlik, go'zallik va did, poklik va jo'shqinlik kabi tushunchalarga inson ruhiyatining

bilimdoni sifatida ta'rif bergan. U shunday yozadi: «Inson jamiyatda o'z qarindosh-urug'lari bilan birlashib olishga majburdir, bundan maqsad bir-birini qo'llab-quvvatlash hamda har bir kishining o'zini, ham boshqalarni ta'minlash uchun ishlarni bajarishdir».

Olim bu bilan qarindosh-urug'chilik an'analarini mustahkamlash kelajak avlodlarning jipslashuvi, bir-birlariga hamdard va hamnafas bo'lishlik, tinch-totuv yashashlik, og'ir kunlarda yordam berishga, quvonchli kunlariga sherik bo'lish g'oyalarini ilgari suradi. «Inson o'z ehtiroslariga xukmron, ularni o'zgartirishga qodir. U o'z jon va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtagudek narsalarga aylantirishga, uni hulq atvor shifokorlik bilan davolashga hamda asta-sekin ahloq haqidagi kitoblarda ko'rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodir».

Beruniy inson ruhiyatini chuqur bilganligi, tufayli u shaxs irodasining kuchi bilan bilan har qanday qiyinchiliklarni enga olish o'z xarakteridagi kamchiliklarni pand-nasihatlar va ahloq haqidagi kitoblarda berilgan usullar bilan o'zgartirish kuchiga ega ekanligini ko'rsatadi. Alloma psixologik ta'limotining muhim tomonlaridan biri shundaki, u oliyanoblik inson xarakteridagi shunchaki psixologik xususiyat emasligiga, mazkur kechinma shaxsning xatti-harakatlari va ezgu ishlari natijasida vujudga kelishiga qattiq ishonadi. «Hindiston» asarining so'ngi boblarida XI asr hind xalqining tushunchalariga, dunyoqarashlariga to'xtalar ekan, o'sha davrdagi hindlarning diniy marosimlari, rasm-rusumlari va odatlari o'zaro nikoh, ro'za, xayitlar, ulug' ayyomlar haqida to'xtaladi.

«Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida esa Islom dini ahli musulmonlarning nishonlaydigan mashhur kunlari, xayit va boshqa bayramlari ustida so'z yuritib, ularning kishi ruhiyatiga ta'siri haqida qimmatli fikrlar bildirgan.

Beruniy o'z asarlarida har qanday jumboqni hal etishda ilm-fanning rolini ifodalashga alohida e'tibor bergan. Uning ilm-fan to'g'risidagi fikr-

mulohazalari, jumladan, ahloqqa oid pedagogik va psixologik qarashlari hozirda ham muhim ahamiyatga ega.

Buyuk qomusiy olim sifatida barcha hodisalarning mohiyatini ilmiy jihatdan ochib berishga harakat qilgan Sharq mutafakkirlaridan bir Abu Ali Ibn Sinodir. Uning pedagogik-psixologik qarashlari ilmiy asosda qurilgan bo'lib, u bola xarakteri va tasavvurlari tarbiyasida umuminsoniy g'oyalar qo'llanilishini yoqlab chiqqan va tarbiyachi, ota-onalarga uni qattiq tan jazosidan ko'ra, shaxsiy ibrat orqali tarbiyalash ma'qulligini ko'rsatgan. Mutafakkirning «Donishnoma», «Risolai ishq», «Uy xo'jaligi», «Tib qonunlari» kabi qator asarlari O'rta Osiyo xalqlari odob-ahloqi psixologiyasi va tabobat olamida alohida o'rin tutgan yirik tadqiqotlardan hisolanadi.

Ibn Sino «Tib qonunlari» asarida bola xarakteri tarbiyasi haqida shunday yozadi: «Bolani qattiq g'azablanishdan, qattiq qo'rquv, g'am va uyqusizlikdan saqlash orqali erishiladigan yaxshi fe'lli xarakterini shakllantirishga alohida e'tibor berish kerak. Har doim bolaning xohlagan narsasini darhol berishga va yomon ko'rgan narsasini uzoqroq tutishga tayyor turish kerak. Bu bilan ikki tomonlama naf keladi. Birinchisi bolaning ruhi uchun foydali bo'lib, bola yoshligidanoq xushfe'l bo'lib o'sadi va bu sifat keyinchalik uning doimiy odatiga aylanib qoladi. Ikkinchisi badan uchundir, chunki badfe'llik yaramas mijozdan kelib chiqadi, ya'ni badfe'llik odatga aylanib qolsa, shunga mos yaramas mijozni paydo qiladi. Masalan: g'azab badanni qattiq qizdiradi, g'am qattiq quritadi, qarshilik ruhiy quvvatni so'ndiradi va mijozni shilimshiqlikka moyil qiladi. Xulqni bosib, vazmin qilish natijasida bir vaqtning o'zida ruh va badan salomatligiga erishiladi».

Mutafakkirning mehnatsevarlik hissi borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovvordir. Jumladan, u har bir bolani biror hunarga o'rgatmoq shart deydi. Yosh yigit biror hunarni o'rgansa, uni hayotga tadbiiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani ta'minlaydigan bo'lsagina, otasi uni uylantirib qo'ymog'i lozim, deb hisoblaydi. O'spirin hunar egallashi bilan unda nafaqat ahloqiy hislar, bilan xarakterning irodaviy hislari ham tarkib topib, mustahkamlana boshlaydi. Hunar

egallash orqali o`spirinlarda sabr-bardoshlilik, chidamlilik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, zukkolik kabi sifatlar vujudga keladi.

Ibn Sino har bir insonning temperamentidan kelib chiqib unga alohida e`tibor berish kerakligini ta`kidlashi orqali juda katta amaliy ish qilganligini ko`rish mumkin. Uning fikricha, har bir inson faqat unga tegishli bo`lgan xususiyatlargagina egadi, unga o`xshagan odam kamdan-kam bo`ladi.

Hozirgi davrda ham olimning falsafiy qarashlari, ijtimoiy hayotimizda o`z qimmatini yo`qotmagan. Allomaning inson tarbiyasi va temperamenti xususidagi fikrlari katta ahamiyatga ega bo`lib, insoniy munosabatlar etikasiga munosib hissa bo`lib qo`shilgan. Uning falsafiy, mantiq, psixologiya, siyosiy-ijtimoiy fanlar bo`yicha bizga meros bo`lib qolgan qator asarlari ilm ahli uchun dasturi bo`la oladi.

XI asrning buyuk mutafakkiri va shoiri Yusuf Xos Hojib o`zining «Qutadg`u bilig» asarida etika va hayotga oid qarashlarini bayon qiladi. Yusuf Xos Hojib Sharq xalqlarining turmush tarzi, urf-odat va an`analarini yaxshi bilgan. Shu sababli u bu xalqlarning turmushidagi urf-odatlar, odob-ahloq me`yoriga katta qiziqish bilan qaraydi, kattalarni hurmat qilish kichiklarning burchi ekanligini, o`z navbatida kattalar ham ularning e`zozlashi hamma uchun insoniylik, qadr-qimmat belgisi ekanligini ta`kidlaydi. U odamning Olloh tomonidan yaratilganligini hamda odamning dunyoga kelishi va uning kelajakda qanday odam bo`lib voyaga etishishi, ajdodi va kelib chiqishiga hayotda shug`ullanayotgan faoliyatiga, atrofga nisbatan munosabatiga bog`liqligini aytib: «Kimning nasli otadan boshlab toza bo`lsa, undan elga yaxshilik, ko`p manfaatlar keladi», deb hisoblaydi.

Buyuk shoir Alisher Navoiy xalq pedagogikasi va ruhiyat taraqqiyotini yaxshi bilgan, o`zbek xalqining madaniyati va adabiy tilini olamga tanitgan. Uning ta`lim-tarbiya, odob-ahloq, maishiy turmush muammolariga bag`ishlangan «Mahbub-ul qulub», «Tarixi mulki ajam» asarlarida bu borada qilgan ishlarining sarasidir. Navoiy bu asarlarida butun hayoti davomida ko`rgan, bilgan voqealar, oddiy xalqning turmush tarzi, fe`l-atvori, ruhiy hayoti,

urf-odatlari, an`ana va bayramlarini yaxshi va yomon hislatlari bo`yicha to`plagan ma`lumotlarini bayon etgan.

XIV asrda yashab ijod etgan, davlatni boshqarish bilan ijtimoiy hayot borasida buyuk asarlar yaratgan shoir Zahriddin Muhammad Bobur ham o`z asarlari orqali tarix, jo`g`rafiya, psixologiya fanlariga katta hissa qo`shgan. Sharoit taqozosi bilan u jahon kezib turli xalqlarning urf-odatlarini, an`analarini, turmush tarzlarini o`rganib, o`zbek xalqi madaniyatiga sezilarli hissa qo`shgan. Shoirning dunyo adabiyotidan joy olgan «Boburnoma» asarida milliy fazilatlar, xalqning orasidagi qarindosh-urug`chilik, do`stlik, bahamjihatlikka oid fikrlar bayon etilgan. Bu asarni mutolaa qilgan har bir o`quvchida o`zbeklarga xos milliy g`urur shakllanmay qolmaydi. Bobur kishilarda uchraydigan xarakterning ijobiy va salbiy xususiyatlarini ochib, ularning sabab va oqibatlari haqida fikr yuritadi. Chaqimchilik, yalqovlik, ta`magarlik, xudbinlik, adovat, manmanlik kabilarning mohiyatini ochib, ularning sabab va oqibatlari haqida fikr bildiradi: «Men dushmanim bo`lgan odam adovat qilmayman. Zeroki, mening adovatim dushmanimning xusumatini ziyoda qilur. Men adovatga qarshi do`stlik ila muqobala (qarshi chiqib) qilib, xusumatni muvaddatga (do`stlik) aylantirib, dushman kishilarni o`zimga el qilaman» deb yozadi.

Iste`dodli shoir etuk tarixchi, mohir tarjimon Muhammad Rizo Ogahiy o`zining ijodiy faoliyatiga xalq o`yinlarining aqliy, nafosat, jismoniy tarbiya imkoniyatlarini g`oyat ziyraklik bilan fahmlagan holda, o`yin vaqtida bolaning fe`l-atvorini tezroq bilib olish, uning salbiy va ijobiy sifatlarini osonroq aniqlash be`mani qiliqlarini bartaraf etish mumkin, degan didaktik xulosaga keladi. U kurash, chavandozlik, ot ustida kurash va qilichbozlik, chavgon chillak, sopqon, kamondan otish bo`yicha merganlik, shatranj, nard, dolbozlik, masharabozlik, tosh ko`tarish, pichiq o`yini va boshqa xalq o`yinlari hamda odatlari to`g`risida izohlar berar ekan, bolalar o`yinlarining tarbiyalovchilik tomonlarini birma-bir ta`riflaydi.

XX asr boshlarida ijod etgan ma`rifatparvar shoir Muqumiy ham o`zining qator she`rlarida yolg`onchilik, firibgarlikni qoralaydi. Bolani yoshligidan

rostgo'ylikka o'rgatish zarurligini ta'kidlaydi. U odob-ahloqda oiladagi urf-odatlar, o'ynaydigan o'yinlar katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ba'zi bir o'yinlar, odatlar bolalar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishini batafsil sanab o'tadi va bola tarbiyasi samarasi bevosita otanonaning ibrat namunasiga bog'liqligini ko'rsatadi.

Asrimizning etuk o'zbek ma'rifatparvari Abdulla Avloniyning 1913 yilda yozgan «Turkiy guliston, yoxud ahloq» asari xalq pedagogikasiga qo'shilgan katta hissasi bo'lib, bu asarda insonlarda uchrab turadigan yaxshi va yomon xulqlar: sabr-bardoshlilik, or-nomus, hayo, g'azab va adovat kabilarning kelib chiqish sabablari va oqibatlari haqida fikr yuritiladi. U xalq pedagogikasidan keng foydalangan holda oilada bola tarbiyasi va umuman, uning ijtimoiy rolini ochib bergan. Alloma tarbiya jarayonida oila va jamoatchilikning o'rnini, ularning hamkorligini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, bola fe'l-atvorida ahloqiy sifatlarining tarkib topishi ijtimoiy muhit va oilaviy sharoitga bog'liqdir.

Avloniy o'zining pedagogik izlanishlari davomida bola fe'l-atvori tarbiyasi oila bilan birga maktab va jamoat tashkilotlarining ham vazifasi ekanligini e'tirof etmagan bo'lsa-da, lekin ahloq masalasini umuminsoniy vazifalar darajasida talqin etgan.

Buyuk mutafakkirlar asarlarini tahlil qilish jarayonida shu narsa yuza keladiki, ular umumiy fanlar qatori psixologiya fani taraqqiyotiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar. Ularning barchasi bola ahloqi, odobi, fe'l-atvori shakllanishida oila ta'sirini alohida ta'kidlaganlar ilgari. Atrofdagilar bilan shaxslararo munosabatlar, ularning xatti-harakatlari, xarakterlaridagi ijobiy hislatlarni shakllantirishda urf-odatlar, marosim, rasm-rusumlarni qo'llash, ularga qat'iy amal qilish allomalarimiz tomonidan tan olingan va ularni hayotiga tadbiq etish tavsiya etilgan.

Bu mutafakkirlarimizning asarlari hozirgi kunga kelib ham katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ular o'z fikrlarini tasdiqlash uchun maxsus tadqiqotlar o'tkazmagan bo'lsalar-da, lekin kuzatishlarida analitik ustuvorlik faktologik material funktsiyasini bajari olgan.

Ko`rinib turibdiki, Sharq mutafakkirlari shaxs hulq atvor kamolotida atrof-muhit, tarbiya, xususan, oila va mahalla tarbiyasiga alohida e`tiborni qaratganlar. Barcha asarlarda ijtimoiy ta`sir vositasi sifatida tarbiya, ya`ni ataylab tashqaridan ta`sir ko`rsatish orqali ibratli xulq-atvorni shakllantirish, oila tarbiyasi masalalariga e`tiborning qaratilganligi, bizga bola hulq atvor dunyoqarashi va fazilatlarining asosi aynan shunday ijtimoiy ta`sir omillari ekanligi haqidagi fikrni yana bir karra e`tirof etishimizga imkon beradi. Sharq xalqlari, jumladan, o`zbek xalqining bu borada yuksak imkoniyatlari azaldan mavjud bo`lib, ushbu milliy qadriyatlar va xalq an`analaridan to`g`ri, unumli va maqsadli foydalanish zarur, degan xulosaga olib keldi.

1.2. Psixologiya fanida kichik maktab yoshidagi o`quvchilar xulq atvoriga ta`sir etuvchi ijtimoiy omillar tahlili.

Biz Sharq mutafakkirlarimizning bola xarakteri, odobi, ahloqining shakllanishida oila va ijtimoiy muhitning roli haqidagi fikrlari bilan tanishdik. Ularning ilmiy qarashlari, bildirilgan fikrlari, qo`llanilgan atamalar tizimi hozirgi fanining tili bilan bir xil bo`lmasa-da, lekin har holda bu ilmiy boylik bizning hulq atvor merosimiz sifatida, hozirgi jamiyatimiz a`zolari hulq atvor va ahloqiy xususiyatlarini o`rganish manbai sifatida qimmatlidir.

Shaxs hulq atvor dunyoqarashi, tasavvurlari va xulqi masalasi psixologiyada shaxsning rivojlanishi muammosi doirasidagi o`rganilgandir. Xususan, chet el psixologiyasida bu masala «Ahloq psixologiyasi» yo`nalishida maxsus tadqiqotlar doirasida o`rganiladi. «Ahloq psixologiyasi» ning predmeti shaxs hulq atvor taraqqiyoti va kamoloti masalasi bo`lib, u hulq atvor va ahloqiy ong va xulqning turli vaziyatlarda namoyon bo`lishi qonunlarini o`rganadi va fan sifatida emperik psixologiya, amaliy etika hamda amaliy, tadbqiqiy pedagogikaning o`ziga xos tarzdagi sintezidir.

Bu yo`nalishda faoliyat ko`rsatgan olimlar orasida Jan Piaje ishlari, uning boladagi ahloqiy fikrlashlarning paydo bo`lishiga bag`ishlangan tadqiqotlari

alohida ahamiyat kasb etadi. U ahloqiy tushunchalar va hulq atvor tasavvurlar shakllanishining 3-bosqichini farqlaydi:

1. Ahloqiy realizm – 10-11 yoshli bolalarda kuzatiladi;
2. Ahloqiy kooperatsiya – o`smirlar tafakkuri va fikrlashlariga taaluqli;
3. Tenglik ahloqi – o`spirinlik davriga xos tasavvurlar.

J.Piaje tadqiqotlarining bizning izlanishimiz doirasidagi ahamiyati shundaki, u o`smirlar va ilk o`spirinlik yoshida ahloq, odob, ma`naviyat borasidagi tasavvur va bilimlarning o`zgarishida shaxsni o`rab turgan muhit va munozarali sharoitlarning rolini alohida yoritib bergan. Ya`ni guruhda to`g`ri tashkil etilgan gurunglar, baxslar va munozaralar boladagi nafaqat hulq atvor tasavvurlar va tushunchalarga ta`sir etadi, balki uni egoistik mavqedan kechish, ijtimoiy motivlarning kuchayishiga ham ijobiy ta`sir ko`rsatar ekan.

Bu qarashlar ta`sirida paydo bo`lgan G`arb nazariyalaridan biri «Kognitiv taraqqiyot nazariyasi» bo`lib uning tarafdorlari –Lourens Kolberg, Tomas Laykon, Jon Raytlar asosiy e`tiborni shaxsdagi hulq atvor va ahloqiy taraqqiyot bosqichlariga, xususan, har bir bosqichda ahloqiy bilimlar, ularning o`zlashtirilish shartlariga qaratganlar. L.Kolberg nazariyasi shu darajada mashhur bo`lib ketganki, uni «Ahloqlashtirish nazariyasi» ham deb atashadi. Kolberg asosan diqqatni ahloqiy tasavvurlarni qanday shakllanishiga, uning shaxsdagi tushunish darajasiga bevosita bog`liqligiga hamda uni mantiqqa aloqador ekanligiga qaratadi. U bu jarayonning uch bosqichini ajradati: «ahloqqacha bo`lgan bosqich», «ahloqning konventsial bosqichi» va «avtonom ahloq» bosqichi. Har bir bosqichda shaxs tushunchasi va tasavvurlari doirasi turlicha bo`ladi. Masalan, «ahloqqacha bo`lgan» bosqichda bolani emotsional munosabatlari muhim rol` o`ynab, undagi asosiy paradigma quyidagicha: «Men xohlagan va menga ma`qul bo`lgan narsalarning barcha yaxshi». Buning xulqida qay darajada ifodalanishiga qarab, bola normalar tilida yo rag`batlantiriladi, yoki jazolanadi.

«Konventsial ahloq» darajasining mohiyati shundaki, bola endi o`zi uchun ahamiyatli shaxslar fikriga murojaat qila boshlaydi, ya`ni referent guruh

shakllanadi. Konformlilik kuchli bo'lishiga qaramay, shaxs tipik holatlarga qabul qilingan ahloq normalariga bo'ysunishga o'rgana boshlaydi.

Eng yuqori, mukammal bosqich hisoblangan «avtonom ahloq» bosqichi esa Kolberg fikricha, har qanday ahloqiy va hulq atvor qadriyatlarga shaxsning ichki tuyg'usi, munosabati borligi bilan izohlanadi. Ya'ni, shaxs go'yoki jamiyat bilan o'zicha, o'z nuqtai va tasavvurlari doirasida «shartnoma tuzadi» va universal etik normalarga bo'ysunishga o'zini majbur qila oladi. Aynan shu davri «vijdon» kategoriyasi asl holda paydo bo'ladi, lekin bunda tashqi muhit, tashqi ta'sirlar roli katta bo'ladi.

L.Kolberg nazariyasini tahlil qilar ekanmiz, undagi ayrim jihatlarni alohida ajratishni joiz deb hisoblaymiz. Birinchidan, bu nazariya ahloq - odob va ma'naviyatni o'ziga xos, betakror soha sifatida ajratadi, ya'ni u aynan shaxsning ahloqiy, hulq atvor taraqqiyotiga qaratilgandir. Ikkinchidan, bu nazariya aynan tadbqiqiy xarakterga ega bo'lib, tarbiyachi va pedagoglar G'arb shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda, yoshlar hulq atvor tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar rolini amalda idrok qilishga imkon beradi. Bu bilimlar tarbiyaviy ta'sirlarga differentsial yondashuvni ta'minlaydi. Uchinchidan, bu nazariya ahloqiy mulk mezonlarini tushunishga imkon beradi va bunda shaxsdagi bilimlar, tasavvur va tushunchalarni ahamiyatli ekanligiga tadqiqotchilar diqqatini qaratadi. Rus olimi I.S.Kon fikricha, bu G'arbda tan olingan va o'ta mashhur nazariyalar qatorida bo'lsa-da, lekin uni yagona va eng mukammal nazariyalardan, deb tan olib bo'lmaydi. Chunki uning dastlabki ikki bosqich to'g'risidagi g'oyalari AQSh, Angliya, Kanada, Meksika, Turkiya davlati, Gonduras, Hindiston, Yangi Zelandiya, Tayvandda sinovlardan yaxshi o'tgan bo'lsa-da, ammo qolgan mamlakatlarda yuqori qimmatga ega bo'lmagan.

Qolaversa, O'zbekistonlik psixolog V.A.Tokarevaning fikricha, shaxs ahloqiy taraqqiyoti darajasini uning «bilimlari va aqliy salohiyati bilangina chamalab bo'lmaydi. Chunki u bir tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning mahsuli bo'lsa, ikkinchi tomondan, shaxs tomonidan ahloqiy, xulq atvor etuk bo'lish xohishi bo'lishiga ham bog'liq jarayondir».

Shaxs kamolotida xulq atvor tushunchalar va tasavvurlarning o`rnini o`rgangan g`arbdagi mashhur nazariyalardan yana biri neofreydizm bo`lib, uning ildizlari bevosita Z.Freydning psixoanaliz nazariyasiga borib taqaladi. Ma`lumki, Freyd «egoizm», «ahloqsizlik», «vijdon» va «ahloqiylik» tushunchalari atrofida ko`plab psixoanalitik tadqiqotlar o`tkazgan bo`lib, ularning manbaini ongsizlik sohasida ro`y beradigan psixologik jarayonlarga olib borib taqagan edi. Shaxsning jamiyat bilan munosabatlarini boshqaruvchi psixologik mexanizmlarga «vijdon» va «egoizm» hislarini kiritgan Freyd, ahloqiy tasavvurlarning mazmuni ko`proq shaxsning ustanovkalariga, hissiyotlariga, ongsiz instinktlariga bog`liq, deb e`tirof etgan edi.

Hamdo`stlik davlatlarida faoliyat ko`rsatayotgan psixologlar ham ma`lum ma`noda bizni qiziqtirayotgan muammoga bag`ishlab tadqiqotlar o`tkazganlar va ularga hulq atvor ahloqiy tarbiya tamoyillarini ishlab chiqish bo`yicha yutuqlarni ham qo`lga kiritganlar. Biz ana shularning ayrimlarigagina to`xtab o`tmoqchimiz.

Shaxs ahloqiy va hulq atvor taraqqiyoti kabi murakkab, keng qamrovli muammo bu tadqiqotlarda bir necha yo`nalishlar bo`yicha olib borilgan, masalan, ahloqiy tasavvur va tushunchalarni o`rganish (A.Alyakinskaya, A.P.Gutkina, G.V.Dragunova, V.A.Krutetskiy, P.I.Rasmoslov, T.V.Rubtsova, A.A.Shnirman va b.q.), shaxs ahloqiy xatti-harakatlarining motivlari va motivatsiyasi (L.I.Bojovich, N.A.Jidaryan, e.V.Subbotskiy, P.M.Yakobson, S.G.Yakobson va b.q.), shaxsning ahloqiy ideallarini o`rganish (V.Bitsev, F.R.Gonsales, Z.I.Grishanova, N.I.Zagorenko, L.Yu.Dukat, M.G.Kazakina, L.e.Raskin, Z.Safonov, N.I.Sudakov va b.q.), alohida ayrim ahloqiy hislatlarning shakllanishi (N.B.Andrianova, R.Ibroximova, K.Muzdiboev, M.Sh.Rasulova, V.A.Tokareva va boshqalar), ahloqiy e`tiqodlarning shakllanishi (A.M.Bardian, I.M.Krasnobaev, A.L.Maliovanov va b.q.) bo`yicha ilmiy ahamiyatga moyilik ishlar amalga oshirilganki, ular ahloqshunoslik nazariyasi va amaliyotini qimmatli ma`lumotlar bilan boyitadi.

A.V.Zosimovskiy shaxs ahloqiy taraqqiyoti bosqichlari ichida yuqori sinf o`quvchilari taraqqiyot bosqichiga tegishli ayrim ilmiy natijalarni ham qo`lga kiritgan. Jumladan, u yuqori sinf o`quvchilarida namoyon bo`ladigan ahloq normalariga munosabatning bevosita tafakkurga bog`liqligi, uning dialektik va o`zgaruvchan xarakteriga e`tibor bergan. U o`tkazgan tadqiqotlarda yuqori sinf o`quvchilarida ahloqqa nisbatan mas`uliyat hissining ortiqqligi va ularning o`z-o`zini baholash va yaqin do`stlarini baholashga aloqadorligi isbot qilingan. Uning xulosa qilishicha, «o`spirinlik davriga kelib, ahloqiy sohadagi o`zgarishlar va shakllanishlar asosan nihoyasiga etadi. Bundan tashqari, ayrim tadqiqotlar talabalardagi ahloqiy tasavvurlar va ahloqiy xulqni o`rganishga bag`ishlangan. Masalan, ahloqiy sifatlar va qadriyatlarining taraqqiyoti dinamikasi I.L.Baskakova, Z.V.Kuzmina, N.R.Vdovina, A.G.Vlaskin, e.F.Mosinlar tomonidan, ahloqiy va hulq atvor munosbatlarining shaxs tomonidan baholashi – o`z-o`zini baholash M.M.Kovaleva, A.e.Soloveva, O.V.Shekochixin, L.I.Soboleva va boshqalar tomonidan talabalardagi ahloqiy ong va o`z-o`zini anglash D.S.Shimanovskiy, A.S.Frants, S.M.Godnik, V.I.Kunchenkolar tomonidan o`rganilgan. Ularda to`plangan ma`lumotlar ham ilmiy qimmatga ega bo`lib, o`spirinlik davrida maxsus ta`lim-tarbiya jarayonida ahloqqa va ma`naviyatga munosabat qanday o`zgarishi xususida aniq xulosalar olingan.

V.A.Tokareva qo`lga kiritgan asosiy xulosalarning mazmuni shunga qaratilganki, talaba ahloqiy taraqqiyotining eng asosiy mezonini uning faoliyati, bo`lganda ham ahloq, ma`naviyatga dahldor faoliyat bo`lib, uning o`zi ahloqiy motivlar xarakteriga bo`ysungan bo`ladi. Ushbu jarayonda shaxsning ahloqiy fazilatlari shakllanadi, ahloqiy normalarni o`zlashtirish ro`y beradi, bilimlar boyib boradi, ahloqan o`z-o`zini baholash takomillashadi, ahloqiy his-tuyg`ularni namoyon etish tajribasi paydo bo`ladi, ahloqiy xulqqa aloqador odatlar tarkib topadi. Tadqiqotchining fikricha, o`quv faoliyati jarayonida talaba tomonidan turlicha qiyinchiliklarni engish, ularga bardosh berish nafaqat aqliy mukammallik va faollikni, balki ahloqiy va hulq atvor chiniqishni ham talab

etadiki, bu odamlar bilan bo`ladigan turli-tuman o`zaro munosabatlar mohiyati va yo`nalishini ham belgilaydi. Bu o`rinda muallif tomonidan inobatga olingan yana bir muhim jihat shuki, shaxsning ahloqiy va hulq atvor kamoloti avvalo real hayotiy vaziyatlarni ongli tarzda tahlil qilish oqibatida va asosida ro`y beradi. Yosh bolalardan farqli o`spirinlik davriga xos bo`lgan maksimalizm – har qanday hodisalarga o`ta jonsaraklik bilan munosabatda bo`lish, hodisalar mazmunidan ko`ra, oqibatiga ko`proq e`tibor berish, hayotiy vaziyatlarda idrok qilinayotgan narsa va hodisalar mohiyatini teran tushunish va o`ziga ahamiyatlilarini faol saralab olishga imkon beradi. Bu o`spirinlik davrining hulq atvor qadriyatlarini o`zlashtirishga qulay davr ekanligini yana bir marotaba ta`kidlaydi. Bu xulosalar yana bir rus olimi K.A.Abulxanova-Slavskayaning nazariy taxminlariga to`g`ri keladi: uning ishiga, «..Shaxsning taraqqiyoti uchun maxsus tarzda yo`naltirilgan ijtimoiy ta`sirlar ... uning nafaqat o`z faolligidan, balki ularning shaxs hayotiy tarziga adekvat ta`sir ko`rsata olishiga, ... tarbiya ham shaxs shaxsiy tajribasiga hamohangligidan iboratdir». Demak, tarbiya vositalarining shaxs real hayotiga mosligi, ularning yosh va taraqqiyot xususiyatlariga to`g`ri kelishi samaradorlik omilidir.

V.A.Tokarevaning o`zi shunday bir xaq fikrni ilgari suradiki, o`tkazilgan tadqiqot o`spirinlik davrida shaxs ahloqiy va hulq atvor taraqqiyot rivojlanishining bir jihatidan qamrab olgan, xolos. Kelgusidagi tadqiqotlarda esa, «..ahloqiy qobiliyatlarning tuzilishi va tizimi chuqurroq tahlil qilinishi, turli taraqqiyot davrlarida ahloqiy sifatlarning namoyon bo`lish va shakllanish qonuniyatlari izchil o`rganilishi..» zarur. Muallif ochib bergan «pishib etilagn muammo»ning muhimligidan kelib chiqib, biz ham ilk o`spirinlik davrida – ya`ni shaxs atrofida o`zi uchun ahamiyat kasb etishi mumkin bo`lgan hulq atvor qadriyatlar va ahloqiy normalariga faol munosabat bildirish mumkin bo`lgan davrda uning hulq atvor tasavvurlari mazmunini belgilovchi ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik omillarni maxsus tadqiqotlar doirasida o`rganish zarurligini angladik. Shu o`rinda yana O`zbekistonda o`tkazilgan bevosita bo`lmasa ham,

bilvosita bizni qiziqtirgan muammoga yaqin tadqiqotlarga qisqacha to`xtab o`tamiz.

M.Mamatovning ilmiy ishlari milliy xarakter, milliy did mavzusida bo`lib, u millatning psixik tarzini asosiy tarkiblari bo`lgan: milliy xarakter, urf-odat, an`ana, milliy his-tuyg`u. Milliy didni falsafiy va psixologik tomonlarini o`rgandi. Muallif milliy xarakterni quyidagicha tushuntirdi: milliy xarakter - qiyin anglanadigan, lekin tushunsa bo`ladigan ijtimoiy hodisa bo`lib, uni faqat tarixiy materializm tomonidan tushuntirish mumkin, deydi.

M.Mamatov o`zbek xalqining psixik xususiyatlarini to`la ravishda asoslab berishga harakat qiladi. Millat xarakteri bilan shaxs xarakterining bir xil emasligini, farqlarini ilmiy ravishda tushuntiradi.

Falsafiy ishlardan tashqari keyingi davrda pedagogikaga oid tadqiqotlar ham o`tkazila boshlandi. Pedagogik tadqiqotlarda an`analarning tabiati va bola tarbiyasiga ta`siri o`rganildi. Jumladan, A.K.Aliev, I.A.Davliev, T.K.Sarsenbaev, S.Temurova, O.Musurmonova, A.I.Musurmonov va boshqalar shular jumlasidandir.

Oilada bolalar tarbiyasining pedagogik usullari borasida A.K.Munavvarov, O.To`raev, M.O.Ochilov, N.Nishonov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarini keltirish mumkin. Bolaning ahloqiy rivojlanishida oila va undagi urf-odatlarining bola shaxsiga ta`siri ilmiy jihatdan to`la, yorqin ifodalab berilgan ilmiy tadqiqotlar sarasi desak mubolag`a bo`lmaydi.²

S.Nurmatov va G.Baubekova xalqning mehnat an`analarini o`rganib, ulardan tarbiyada hamda yuqori sinf o`quvchilarini kasbga yo`naltirishda foydalanish usullarini ishlab chiqdilar. Bular asosiga qurilgan maktabdagi ta`lim-tarbiya mazmuni o`quvchilarning kasbni egallashlarida, sinfdan tashqari ishlarni yo`lga qo`yishda istiqbolli (progressiv) mehnat an`analaridan foydalanishni ko`rsatadi.

O`zbek xalqining tarbiya bilan bog`liq an`analari I.Sherboev tomonidan o`rganilgan va ular xalq tarbiyasida pedagogik tizim sifatida baholangan. Xalq pedagogikasi mazmuni og`zaki ijodiyotda, buyuk allomalar merosida

ifodalanganligi ta'kidlanib, ulardan aqliy, ahloqiy, jismoniy tarbiyada foydalanish imkoniyatlari ko'rsatiladi.

Mavjud risolalar, monografiyalar, doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarining ilmiy tahlili shuni ko'rsatadiki, xalq an'analarini ilg'or va reaksion guruhlariga ajratib baholash sababli ularning tarbiyaviy imkoniyatlari cheklab qo'yildi. Buning asosiy sababi, u ham bo'lsa, bu o'sha davr siyosatining natijasidir.

O'zbekistonda xalqning milliy psixologik qiyofasini o'rganish bilan shug'ullangan psixolog olimlardan biri M.Vohidovdir. M.Vohidov xalqlarning milliy psixologik qiyofasini o'zgarishiga oid ishlarda milliy psixologik qiyofaning o'zgarishiga xalqlarda mavjud bo'lgan an'analar, qadriyatlar, ufr-odatlarining ta'sirini o'rganib, bu sohani o'rganish uchun psixologlardan birinchilardan bo'lib izlanish olib borgan.

M.G.Davletshin, G.B.Shoumarovlar oilani milliy qadriyatlar asosiga qurish, urf-odat va an'analarning ta'siridan foydalanib, yoshlarning hulq atvor, ruhiy dunyosini boyitishga, oilani mustahkamlashga, kishilarning o'zaro munosabatlarida oqibat, mehr-shafqat, hamdardlik, birlik. Hamkorlik kabi fazilatlarini shakllantirishga uning psixologik ta'sir darajasini ilmiy izlanishlari tahlillaridan ko'rishimiz mumkin.

E.G'oziev o'zbek xalqining ruhiy qiyofasi, milliy xarakteri, an'analari. Urf-odatlarini, muloqot maromining boshqa xalqlardan farqi, turmushdagi qarindosh-urug'chilik rishtasi yordamida o'z-o'zini anglashni, yoshlar tarbiyasida o'zbek xalqining etnopsixologiyasidan unumli foydalanish har tomonlama taraqqiy etgan inson shaxsini tarkib toptirishda asosiy vosita ekanligini ko'rsatib beradi. Hamda u inson tafakkuri va psixologiyasida yosh davrlarining o'rganilishi, har bir yosh davrining ahamiyati, psixik xususiyatlarini to'la izohlab berdi. Bu psixologiya fanidagi ba'zi muammolarni hal bo'lishiga va respublikada psixologiya fani taraqqiyotiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

B.R.Qodirovning fikricha, bolalardagi qobiliyat va iqtidorning rivojlanishida oila muhim tashqi muhit rolini o'ynaydi va bunda ota-onaning

bola faoliyatini to'g'ri tashkil etishi, avloddan-avlodga o'tib keladigan irsiy xususiyatlar va umuman oilada tarkib topgan psixologik muhit muhim ahamiyat kasb etadi. Bu xususda olim shunday yozadi: «Oila bola uchun nafaqat tabiiy muhit sifatida uning imkoniyatlarini barq urib rivojlana olishi uchun xizmat qila oladi, balki aynan kommunikativ aloqalarning eng nozik tomonlari shakllanishini va iqtidorning irsiyatga bog'liqligini tushuntiradi».

V.M.Karimovaning ko'plab o'tkazgan tadqiqotlari va doktorlik dissertatsiyasi yoshlarda o'zbek oilasi to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlarni o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, ularda birinchi marta O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan ijtimoiy tasavvurlar kontseptsiyasi ishlab chiqildi. Nazariy model asosida turli yosh va turli jins guruhlariga taaluqli bo'lgan shaxslar ijtimoiy tasavvurlarining o'ziga xosligi, ularning yashash, turmush tarzi, ma'lumot darajasiga, kasbkori va hayotiy tajribasiga bog'liqligi emperik tarzda aniqlab berildi. V.M.Karimova qo'llagan metodik uslublar ijtimoiy ta'sirlar natijasida shaxsda shakllanadigan ijtimoiy tasavvurlar, jumladan, hulq atvor tasavvurlar tizimi qay tarzda o'zgarishini tadqiq etish, ijtimoiy hulq atvor tasavvurlarning shaxs ongini ob'ektiv reallik bilan bog'lovchi psixologik mexanizmlar sifatida o'rganish lozimligi to'g'risida xulosalar kelib chiqadi. Muallifning xaqli e'tirofiga ko'ra, yoshlardagi ijtimoiy tasavvurlarning turli taraqqiyot davrlarida shakllanishini o'rganish borasida muammolar va echilishi zarur bo'lgan ishlar ko'p. «O'smirlar, o'spirinlar o'rtasida qonunbuzarliklar, ulardagi reproduktiv va boshqa tasavvurlarning noto'g'riligi, yoshlarning mustaqil oila qurishga tayyor emasligi..., hulq atvor buzuqliklar... yoshlar tarbiyasi yuzasidan qator dolzarb vazifalarni qo'yadi». V.M.Karimova tadqiqotlari ijtimoiy tasavvurlar – hulq atvor dunyoqarash va shaxs ma'naviyatining psixologik vositasi sifatida o'rganilishini ilgari surgan bo'lsa, bunday tasavvurlarga samarali ta'sir etish omillarini o'rganish yangi izlanishlarning predmetidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar xarakterining shakllanishiga oila muhiti va bolaga oilaning ta'siri, bola tarbiyasining etnopsixologik xususiyatlari, ota-

onaning bola tarbiyasi xususiyatlarini bilishning qanchalik muhimligi, tarbiya masalalarini hal qilishda qo'llaniladigan usullar, bolalarda ahloqiy ong va ijobiy harakatlarni tarkib toptirishning shart-sharoitlari S.A.Axunjonovning ilmiy ishlarida yoritilgandir.

Respublikamiz ilmiy-amaliy anjumanlaridagi ma'ruzalar, ilmiy to'plam va metodik qo'llanmalarning ilmiy tahlillaridan shu narsa ayon bo'ldiki, milliy urf-odat va an'analar nafaqat bola xarakteriga, balki oiladagi nizolarni bartaraf qilishga, ijtimoiy xulqni boshqarishda, oilaviy nikoh munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yishda, oiladagi rollarni to'g'ri taqsimlashda o'z ta'siriga ega ekanligi haqida fikrlar ko'plab mualliflar tomonidan yoritib o'tilgandir. Jumladan: V.A.Tokareva, V.M.Karimova, F.R.Abduraxmonov, R.Sunnatova, N.A.Sog'inov, B.Umarov, M.Qodirova, M.Qoplonovalarning ishlarida bu xususida qimmatli xulosalar bayon etilgan. O'quvchi va o'quvchilar munosabatlarida milliy xususiyatlarning shaxs tarbiyasiga ta'sir M.Rasulova, R.Z.Gaynutdinov, S.Axmedxo'jjaevalarning ilmiy ma'ruzalarida o'z aksini topgan.

Bu ishlardan tashqari, O'zbekistonda mustaqil davlatchilik shakllanishi jarayonida o'zbeklar psixologik qiyofasi va milliy xarakteri muammolariga bag'ishlangan M.Yu.Otajonovning tadqiqotlarini ham ta'kidlash mumkin. Muallif tadqiqotlarida tarixan shakllangan boy hulq atvor qadriyatlar, madaniy meros orqali o'zbeklarning psixologik qiyofasi va milliy xarakterining etnologik ildizlarini izohlash, sotsializm qurilishi davridagi o'ziga xos milliy siyosat tufayli vujudga kelgan hulq atvor yot xususiyatlarni bartaraf qilish orqali hozirgi zamon o'zbeklarida mustaqillik tuyg'usini shakllantirishga yo'naltirilgan ilmiy psixologik tadqiqot tizimini ishlab chiqishga urinilgan. Tadqiqotda psixologik qiyofa xususiyatlari vorisliligini ta'minlovchi muhim omillar sifatida milliy madaniyat, milliy til va milliy xarakterga alohida e'tibor qaratgan.

A.Yu.Mingbaevning nomzodlik dissertatsiyasi o'smirlar ahloqiy sifatlarining shakllanishida xalq an'analari ta'sirining psixologik xususiyatlariga bag'ishlangan bo'lib, ularda ahloqiy sifatleri rivojlanishida xalq an'alarining,

maqol, matallarning tarbiyalovchanlik jabhalarini aniqlab, amaliyotda ulardan foydalanishning psixologik usullari ishlab chiqilgan. Tadqiqotchi milliy urf-odatlarni ijtimoiy hodisa sifatida eʼtirof etib, oʻz ishida quyidagicha talqin qildi. Anʼanalardagi takrorlanuvchanlik xarakteri oʻsmir ahloqiy sifatlarini shakllantirishda asosiy omil boʻlishini, mazkur yoshda bola jamiyatda oʻzini-oʻzi tasdiqlashga nisbatan intilish ehtiyojining kuchliligi bilan ajralib turadi. Holbuki, shunday ekan, mazkur oʻzini-oʻzi tasdiqlashga intilish ehtiyojining qondirilishi anʼananing qonun-qoidalarini bajarish orqali amalga oshadi. Lekin muallif alohida hulq atvor fazilatlar va ularning rivojlanishi muammosiga toʻxtalmaydi.

Milliy urf-odatlar va anʼanalarning tarbiyalovchanlik xususiyati mavjudligiga ahamiyat berilmagan holda biz yuqorida Sharq mutafakkirlari, chet el va respublika psixologlar ilmiy tadqiqotlarining ayrimlarini tahlil qildir, xolos. Ular bola tarbiyasiga taʼsir etuvchi tashqi omillar oila, maktab, jamiyatchilikning rolini batafsil ilmiy asoslaganlar. Anʼana va urf-odatlarining esa falsafiy tomondan jamiyatdagi, ijtimoiy, iqtisodiy, xulq atvor hayotdagi ahamiyati ilmiy jihatdan puxta atroflicha asoslab berilgan. Shuningdek, bu ishlarni tahlil qilish jarayonida hozirgi xalq taʼlimi tizimida dolzarb muammo boʻlib ilk oʻspirin oʻquvchilar hulq atvor tasavvurlarning muammosi va ularga milliy anʼanalar, urf-odatlarining psixologik taʼsiri mexanizmlari etarli darajada ishlanmaganligiga toʻla ishonch hosil qildik. Xuddi shu boisdan ham, biz milliy anʼanalar va ularning taʼsirida kichik maktab yoshi davridagi oʻquvchilarda xulq atvor tasavvurlar shakllanishi muammosining nazariy asoslarini oʻrganib, keyingi paragraflarda ularni batafsil ochib berishni oʻzimizga maqsad qilib qoʻydik.

1.3. Kichik maktab yoshidagi o`quvchilar xulq atvoriga ta`sirini o`rganishning metodologiyasi.

Har bir xalqning psixologik xususiyatlari milliy xarakterida, qobiliyatlari, didida, uning ijtimoiy tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanib kelayotgan barqaror hislatlarida mavjud bo`ladi. Xalqning ruhiy holati uning milliy madaniyatida, tilida, ya`ni adabiyotida, me`morchiligida, qo`shiq, musiqa, kiyinish va urf-odatlarda aks etadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot xalq madaniyatining umumiy mazmunini o`zgartirsa ham, ajdodlar yaratgan ma`naviyatdagi ilg`or mazmun va shakllarini, xalqning milliy va ruhiy xarakterini ifodalovchi va bashariyatga xizmat qiladigan tomonlarini saqlab qoladi. Ana shularga ko`ra an`analarni avlodlar birligi va bolanishini ifoda etuvchi vosita sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq.

An`analar tarixiga nazar tashlasak, madaniyatshunos olim U.Qoraboevning ma`lumot berishicha, an`analarning ilk shakllari ibtidoiy jamiyatga borib taqaladi. Olim o`sha paytdagi «Orgaist bayramlar»ni misol qilib keltiradi. Bu an`anadagi «erkaklikka o`tish» marosimini u quyidagicha ta`riflaydi: «O`spirin bu marosimga uzoq vaqt tayyorgarlik ko`rib, o`zining hayotga tayyorligi va kuchini namoyish qilishga intilgan. U marosimda qiynalgan, sinalgan, xullas, imtixonidan o`tkazilgan. So`ng esa u bolalik odatlarini tashlab, kattalarga qo`shilgan, birga ovga borib mehnat qilgan».

An`analar, urf-odat va marosimlar ana shu tariqa paydo bo`lib, avloddan-avlodga o`tib, shakllanib, rivojlanib, har bir avlod, xalq millat taraqqiyotining ijtimoiy tarixiy bosqichlarida o`zining o`chmas izini qoldirib kelmoqda.

An`ana grekcha «tradition» so`zidan olingan bo`lib, «o`tkazaman» degan ma`noni anglatadi. Agar unga ta`rif beradigan bo`lsak, an`ana ijtimoiy hodisa bo`lib, kishilar ongida va hayotida o`z o`rnini topgan, ijtimoiy hayot, mehnat, madaniyatning hamma sohalariga xos bo`lgan, hodisalarning juda keng doirasini qamragan, avloddan-avlodga o`tib, takrorlanib turadigan, umum yoki ma`lum guruh tomonidan qabul qilingan tartib-qoidalaridir.

Urf-odat – ma`lum sharoit ta`sirida vujudga kelib, kishilar turmushiga singib ketgan, kundalik hayotda uchrab va ma`lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko`pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalaridir.

Marosim-inson hayotida muhim burilish daqiqalarini qayd etadigan, rasmiylashtiradigan, bevosita kishilar guvohligida va ruhiy ko`tarinkilik vaziyatida o`ladigan, bajarilish qat`iy ketma-ketlikda talab qilinadigan, o`zining umum qabul qilingan ramziy harakatlariga va tuzilishiga ega bo`lgan hayotiy tadbiridir.

Milliy an`analar va urf-odat ahamiyat jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalardir, lekin teng kuchli tushunchalar deya olmaymiz. Chunki birinchidan, milliy urf-odat va an`analarning umumiyligi hulq atvor hayot mahsulidir. Ikkinchidan, avloddan-avlodga o`tib boradi, uchinchidan, kishilar fikri va tuyg`ularini mustahkamlaydi, qolaversa, ularni birlashtirib turuvchi kuchli vositaga aylanib qolishligidir.

Biroq ularning teng kuchli emasligi, birinchidan, urf-odatlar an`analardan ilgari yuzaga kelganligi, ikkinchidan, «an`ana» tushunchasi «urf-odat» tushunchasidan kengroq ma`noga ega ekanligi, uchinchidan, urf-odatlar an`analardan harakat doirasi bo`yicha emas, balki ijtimoiy funktsiyasi bilan farqlanishidir. Urf-odatlar u yoki bu aniq holatda, marosimda inson qanday amallar bajarishi kerakligini aniq ko`rsatib beradi. An`analar esa aniq holatlar uchun emas, balki xulq atvor sifatlarni namoyon etishga qaratilgandir. Masalan: yigit va qizning voyaga etib uylanishi yoki turmushga chiqishi an`ana, uning o`tkazilishi marosim, marosimdagi amallarning bajarilishi esa urf-odatdir.

Keyingi yillarda an`ana, urf-odat masalariga qiziqish ortib bormoqda. Bunday qiziqishinig ortib borishi, birinchidan, jamiyat tomonidan milliy qadriyatlarga nisbatan alohida munosabatning shakllanayotganligini, ya`ni bolalar xarakteri shakllanishida milliy urf-odatlardan foydalanish bilan, ikkinchidan, ularning tarbiyasida yo`l qo`yilgan ba`zi kamchiliklar va xatolar natijasida turli qonunbuzarliklar, o`spirinlar orasidagi uyushgan

jinoyatchilikning kelib chiqishi, noxushliklarning oldini olishda maktab, oila va mahalla jamaotchiligidan inson xarakteriga, unda shaxsga oid hislatlarni rivojlantirishga nisbatan ta'sirining kuchayishi bilan tushuntirish mumkin.

Respublikamiz xududida yashovchi har bir millatning o'ziga xos madaniyati mavjud bo'lib, bu madaniyat milliylikni ifodalaydi. O'zbek oilalarida milliy o'ziga xoslikning xulq-atvorda, shaxs sifatlarida, hattoki, uy qurilishi, oziq-ovqat va oilaviy munosabatlarda qanchalik aks etishi, isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Misol uchun non, bu tiriklik mazmuni, hayot manbaidir va u shu bilan birga dasturxonimiz ko'rkidir. Shu boisdan ajdodlarimiz nonni muqaddas deb bilganlar va u haqida qo'shiqlar, dostonlar to'qiganlar. erda yotgan bir burda nonni ham darhol olib ko'zimizga surtishimiz, ehtiyotlab, pokiza joyga qo'yishimizning boisi ham nonga bo'lgan buyuk muhabbatimiz va e'tiqodimizning ongimizga singdirilgan tarbiyaviy ta'sirning mahsulidir. Non bilan bog'liq milliy udumlar ham ota-bobolarimizning behad donishmandligidan dalolat beradi. Zero, xalq nazarida hamma narsa: or-nomus, vijdon ham, iymon ham nonni e'zozlashdan boshlanadi.

Inson xulqi va xatti-harakatini tartibga solish va boshqarishda ijtimoiy odatlar alohida ahamiyatga egadir. Ahloq, xulq namunalari ko'p marta takrorlanib odamning sezgi e'zolarida mustahkamlanib boradi va asta-sekin odatga aylanadi. Ularni kundalik hayotda uzluksiz ravishda takrorlanib turishi ehtiyojga aylanib boradi. Milliy urf-odatlar shaxs xulqini solishga xizmat qiladi va ular ongni ortiqcha zo'riqishlardan holi etib, insonning istak va maqsadlari mushtarakligini yuzaga keltiradi.

Tashqi qo'zg'atuvchilar bo'lib hisoblanmish milliy urf-odatlar va an'analarni bola o'zlashtirmaganiga qaramay, unga ta'sir eta oladi. Inson odatlarni to'liq o'zlashtirib olganidan so'ng uning ichki boshqaruv funksiyasiga aylanadi.

An'analar, urf-odatlar ijtimoiy psixologik holat sifatida insonning ideallarini, didini, ehtiyojlari va dunyoqarashini, ishonch va e'tiqodini, shaxs faolligini belgilaydi.

Masalan, qadimdan uzoq safarga o'tlanilganda «sening sha'ningga gard yuqtirmay qaytayin», degan ma'noda ostona o'pilib, garchi ko'zga surtiladi. Safardan qaytilgandan so'ng ham ostona hurmati bajo keltiriladi. Oilada voyaga etayotgan farzandlar kattalarning bu xatti-harakatlarini anglab etmasalar-da, lekin kuzatib boradi. Hamda sekin-asta ularning mohiyatini tushuna boshlaydi. O'spirin ostonani muqaddasligi, uning sha'ni, oila, mahalla, qarindosh-urug'larning obro'si ekanligi ko'cha-ko'yda, do'stlar orasida xizmatda va mehmonda bo'lganda ham ijtimoiy odatlarga amal qilish kerakligini, shu an'analar ta'sirida uning xulqini ba'zi bir hislatlari shakllanib borayotganligini anglay boradilar.

Har bir harakat va faoliyatga undovchi kuch bu motiv hisoblanadi. Ehtiyoj, esa harakatga undovchi anglanilgan motiv vazifasini bajarishi mumkin. An'analar tarkibidagi odatni ado etish kezida shaxsning hulq atvor ehtiyojini milliy urf-odatlar va an'analarni bajarish vujudga keltiradi. U yoki bu urf-odat va an'anani bajarish uchun shaxsda unga nisbatan qiziqish tuyg'usi paydo bo'lishi lozim, bu esa o'z navbatida uning xulqini ma'lum qoidalar asosida tartibga solib turadi. Ehtiyoj bilan uzviy bog'liq bo'lgan motivlar uni harakat qilishga undaydi. Masalan: milliy urf-odat hisoblanmish hasharni olib qaraylik. Ko'pchilik, umumiyat bilan bajarilgan hamkorlikdagi mehnat hamisha qatnashchilarda jo'shqinlik, xo'sh kayfiyat, o'z kuchiga ishonch tuyg'ularini uyg'otadi. Bu esa o'z navbatida mehnat mahsulini mukammal, puxta, chidamli bo'lishini ta'minlaydi. Hasharda shaxslararo munosabatning tub mohiyatini yuzaga kelishi tufayli norasmiy liderlar paydo bo'lishi natijasida kimdir maslahatchi bo'ladi, kimdir boshqaradi, yana kimdir o'zining nimaga qodirligini namoyish qilishga intiladi. Umumiyat bilan ijro etilgan faoliyat mahsulining sifati yuksak bo'ladi. Hasharda qatnashish orqali shaxslarning bir-biri bilan muomila va muloqotda bo'lish ehtiyoji qondiriladiki, bunday ruhiy holatlar hazil-mutoiba, olqish-duolar va ma'qullash shaklida amalga oshiriladi. Ularning hayotiyligi, ruhiy taskin bera olishi, ishtirokchiga nisbatan psixologik ta'sir

o'tkazishning eng o'tkir, eng kuchli vositalaridan biri hisoblanganligi bilan odamlarni umidvorlikka, ijobiy hislatlar sari chorlaydi.

Shaxs tomonidan urf-odatlar va an'analarning nechog'lik o'zlashtirilganligi, ongga singdirib yuborilganligi uning xulqini boshqaruvchanlik omilligidan dalolat beradi. Inson u yoki bu tarzda aniq harakatni amalga oshirishda motivlar kurashi yuz beradi, lekin haqiqiy qo'zg'atuvchi kuch uning qiziqishi va ehtiyojlarida yotadi.

Muayyan mezonni tanlashda kishi o'z xatti-harakati va ahloqiga mos ibrat namunasini, ma'lum bir harakatni amalga oshirish uchun tayyorgarlik bosqichini boshidan kechiradi. Agarda motivlar undovchi yunktsiyani bajarsalar, u holda odatlar tartibga soluvchi vazifani ijro etadilar. Insonning hayoti davomida urf-odatlar va an'analarning uzluksiz va ko'p muddatli ta'sir etishi natijasida aniq bir ahloqiy tayyorgarlik, ya'ni uni faoliyatga yo'naltiruvchi tayyorgarlik vositalarini shakllantiradi.

Masalan, har bir millat, elatning uyatga nisbatan qarashi bir-biridan keskin farq qiladi. Uyat tushunchasi nihoyatda nisbiy xususiyatga egadir. Janubiy Amerikadagi qadimgi hindular bir umr yalong'och yurganliklari sababli kiyim kiyishdan uyalishar ekan. O'zbek milliy urf-odatlarimizda esa (uyatning sodda ko'rinishlari) dasturxonga kattalardan oldin qo'l uzatish, kattalarni yoki mehmonlarning gapini bo'lish, voyaga etgan qizning o'z otasiga tik boqishi kabi xatti-harakatlar uyat hisoblanadi. Uyat u yoki bu xatti-harakatni nazorat etib turuvchi yuksak tuyg'udir. Muayyan urf-odat tusini olgan baror qoidadan chetga chiqish odamda ana shu tuyg'uni darhol ishga solib yuboradi, natijada regulativ yugktsiya faoliyat ko'rsata boshlaydi.

An'analarning o'z mohiyati va xususiyati bilan ta'sir etishini quyidagicha tushuntirish mumkin: ilmiy ishlardan ma'lumki, an'analardagi takrorlanish xususiyati uning eng ta'sirchan omilidir. Shaxs xarakter hislatlarining shakllanishida urf-odatlardagi takrorlanuvchanlik xususiyati muhim rol o'ynaydi. Ana shu takrorlanish xususiyati an'ananing shaxsga ta'sir o'tkazishning asosiy omili hisoblanishi mumkin. Bu o'rinda masala shundaki,

qanday ijtimoiy ta'sir va tadbirlar vositasida bu jarayonni boshqarish va zarur adaptiv hislatlarni shakllantirishdadir.

Kichik maktab yoshi davridagi asosiy va etakchi faoliyat turi o'qishdan iborat. Bundan tashqari, bu yoshda ularda o'zini-o'zi anglashdagi siljish ko'zga yaqqol tashlanadi. Bu davrda o'z ruhiy dunyosini, shaxsiy fazilatlarini, aql-zakovatlarini, qobiliyati hamda imkoniyatlarini anglashga intilish kuchayadi, faollashadi. Xulq-atvorini boshqarish, xis-tuyg'ulari va ichki kechinmalarini tushunish ishtiyoqi vujudga kela boshlaydi. Yutuq va kamchiliklarini, munosib va nomunosib qiliqlarini aniqroq baholash imkoniyatiga ega bo'la boshlaydilar. O'zini-o'zi anglash kegidida o'zini-o'zi tarbiyalash istagi tug'iladi. O'z-o'zini tarbiyalashda ilk o'spirinlik o'zida mavjud bo'lgan nuqsonlarini yo'qotishga harakat qiladi va o'zida ijobiy sifatlarni shakllantirishga intiladi. Bunday faoliyatda o'spirinning eng muhim individual-psixologik xususiyatlari hamda hulq atvor hislatlari shakllanadi.

Bizningcha, an'anadagi takrorlanuvchi, avloddan-avlodga o'tadigan xatti-harakatlar tizimi m'naviy tasavvurlarning shakllanishidagi takrorlanish jarayonida hamda shaxsning asosiy faoliyat ehtiyojini qondirishda namoyon bo'ladi.

Shaxs xulq atvor tasavvurlarning shakllanishi uning butun hayoti davomida o'zgarib, rivojlanib boraveradi. Lekin xulq atvor qiyofasining asosiy qirralari ularni oila a'zolarining faol ishtiroklari bilan, atrofdagi omillarnig ta'siri va omillarga shaxsning munosabati natijasida xulq-atvorning yangi hislatlari paydo bo'la bordi.

Xulq atvor tasavvurlar nihoyatda mustahkam va doimiy xususiyatlar hisoblanib, uning har bir odamdagi hislatlari yaqqol tarixiy sharoitda ijtimoiy munosabatlarining taraqqiyoti bilan bog'liq holda yuzaga kelgandir. Ana shu jihatdan olganda, har bir tarixiy davrda yashagan odamlarning xuddi shu davrdagi ijtimoiy tuzum manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan xulq atvor hislatlari mavjuddir.

Odatda har bir shaxsning xulq atvor xususiyati va ularga bogʻliq tasavvurlari juda xilm-xil boʻlib, bular uning irodaviy va ahloqiy sifatlariga uzviy bogʻliqdir. Bu hislatlarga iroda kuchi, mustaqillik, qatʼiylilik, chidamlilik, matonat, oʻzini tuta bilish kabilar kiradi. Xulq-atvorning ahloqiy-hulq atvor sifatleri-intizomlilik, masʼuliyatlilik, muruvvatlilik, samimiylik, haqqoniylik, insonpavvarlik, kamtarlik, kengfeʼllilik, tortinchoqlik, kelishuvchanlik, mehnatsevarlik kabilardan iboratdir.

Insonda maʼlum bir hulq atvor hislatning paydo boʻlishi va shakllanishi maʼlum bir qadriyatga moslanishi (yoʻnalishi), ularga taxminiy baho berishida oʻz aksini topadi. Subʼekt maʼlum bir hislatni ongida loyihalashtirib olganidagina qadriyatga yoʻnaltirish haqida gap ketishi mumkin. Qadriyatga nisbatan yoʻnaltirishning shakllanishi ehtiyoj hamda faoliyatga moslashish orqali faollashadi. Maʼnaviyat toʻgʻrisidagi mulohaza yuritiladigan odamlarning xatti-harakatlariga eʼtibor beriladi. Xuddi shu boisdan maʼnaviyatning mohiyati xatti-harakatlarda toʻla aks etadi.

Kichik maktab yoshidagi oʻquvchining psixik rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch jamoat tashkilotlari, maktab jamoasi, oila, mahalla va taʼlim jarayonining talablari darajasi bilan u erishgan psixik kamoloti oʻrtasidagi ziddiyatdan iborat boʻlib, ushbu qarama-qarshiliklar uni xulq atvor tasavvurlarining tezkor oʻsishi orqali bartaraf qilinadi.

«Xulq atvor tasavvur» shaxsning umumiy tasavvurlari tarkibida boʻladi. Tasavvur – shaxsning atrof borliq toʻgʻrisidagi bilimlari, uning shaxsiy tajribasi bilan bogʻliq hodisalar tizimi. U yoki bu obʼekt yoxud hodisa bilimning yoʻqligi tasavvurning ham yoʻqligidan darak beradi. Hulq atvor tasavvurlar «maʼnaviyat» tushunchasi bilan uygʻunlashib, jamiyatning, millatning hamda aynan shaxsning ichki ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushunchadir.

Xulq atvor tasavvurlar – shaxsning shunday tasavvurlari tizimiki, ular vositasida shaxs «maʼnaviyat» tushunchasi atrofdaagi barcha hodisa va obʼektlarni tushunadi va ularga nisbatan maʼlum munosabatni shakllantirgan

bo`ladi. Ular ijtimoiy bo`lgani uchun ham «ma`naviyat»ning deyarli barcha sohalarini: Vatan taqdiri bilan o`zini bog`lash, o`z Vatani tarixi bilan faxrlana olish, fan, din, diniy va milliy qadriyatlar, an`analar, insoniyat yaratgan hulq atvor durdonalar haqidagi tasavvurlarni o`z ichiga oladi.

Xulq atvor tasavvurlar ijtimoiy tasavvurlarning bir tarmog`i bo`lib, u qotib qolgan ma`lum kognitiv narsalar emas, balki ular doimiy rivojlanishda, harakatda va taraqqiyotda bo`ladi. Uning dastlabki bosqichi idrok qilish bosqichi bo`lib, unda bevosita ongda aks etadigan ma`lumotlar qabul qilinishi, ular anglanganlik va shaxs uchun zarurat nuqtai nazaridan saralanishi ro`y beradi. Undan so`ng ikkinchi bosqich – assotsiativ bog`lanishlar bosqichi ro`y beradi, ya`ni bunda ongda yangi xabarlar eskilar bilan solishtirilib, assotsiativ va xulq atvor bog`lanishlar o`rgatiladi. Yuqoridagi ikkinchi bosqichning umumiy xususiyati umumlashtirish– generalizatsiyadir. Keyingi bosqichlar ko`proq tafakkur va tushunchalar sohasiga taaluqli bo`lib, unda har bir ma`lumot yoki xabar differentsial holda individ uchun ahamiyatlilik nuqtai nazaridan ajratiladi va shu asosda ma`lum ustanovkalar shaklida shaxs xulq-atvori yo`nalishini belgilaydi.

Ijtimoiy tasavvurlarning qayta takomillashini haqida shuni aytish lozimki, bu jarayonda bizning fikrimizcha, qaytarilish usuli muhim rol` o`ynaydi. Lekin qayta-qayta idrok qilinayotgan narsa o`sha tinglovchi uchun ham xissiy, ham intellektual ahamiyatga ega bo`lish kerak. Ma`lum shaxsiy ma`no va mazmun kasb etgan qaytarishlar tasavvurlarning e`tiqotlar darajasida mustahkamlanishiga olib kelishi mumkin. Bu o`rinda shuni hisobga olish lozimki, agar shaxsning idrokiga etib kelayotgan ma`lumot uning ilgari sub`ektiv tasavvurlariga mos kelsa, u to`g`ri ob`ektiv real deb tan olinadi-da, tasavvurlar tizimidan o`rin oladi, agarda ustanovka aksincha bo`lsa va berilayotgan ma`lumotlar shaxs qarashlariga mos kelmasa, ularni «yolg`on» sifatida qabul qilmasligi mumkin.

Ayniqsa, yoshlarda tasavvurlarning qayta qurilishi va qarashlarning o`zgarishi ancha oson kechadi. Bizning o`zbek psixologiyamizda ham milliy

qadriyatlarga bo'ysunish bilan bir qatorda, avtoritetli shaxslar va guruhlar fikriga ergashish, ularni tanqidsiz qabul qilishga moyillik yo'q emas.

Shunday qilib, xulq atvor tasavvurlarning o'zgarishi avvalo tashqi omillar ta'siriga bog'liq bo'lib, bu o'zgarish jarayonida bir qancha bosqichlarni ajratishimiz mumkin.

1-bosqich. Ma'lumotlar oqimining idrok qilishini va ulardan shaxsga ma'lum ma'noda ahamiyatlilarini ajratib olinishi.

2-bosqich. Ajratib olingan ma'lumotlarning eskilari bilan solishtirilishi va ular orasida o'zaro bog'liqliklarining qondirilishi.

3-bosqich. Kognitiv tizimda yangidan ma'lumotlarning tabaqalanishi va klassifikatsiyasini ajratilishi va unga ahamiyatsiz ma'lumotlarning qarama-qarshi qo'yilishi.

4-bosqich. Tasavvurlar «yadrosi»ning tashkil topishi va uning xulq-atvor shakllarida mustahkamlanishi.

Shunday qilib, shaxs ijtimoiy tasavvurlar tizimidan joy olgan milliy an'analar, urf-odatlar xisoy munosabatining ijobiy va salbiy ta'siri xulq-atvorda namoyon bo'ladi.

Kishilarda xulq atvor qarashlar va tasavvurlar muayyan ijtimoiy madaniy shart-sharoitlarda, ijtimoiy ta'sirlar majmuining xulosasi sifatida shakllanadi. Bu jarayonda avvalo shaxsdagi ahloq normalari va qadriyatlar to'g'risidagi tushunchalar mazmuni va ularga shaxsiy munosabati muhim rol o'ynaydi. Metodologik nuqtai nazardan muhim bo'lgan ushbu holatni aniqlash maqsadida tadqiqotda kuzatish va suhbat, anketa metodlaridan foydalanish mumkin. Bu o'rindagi asosiy metodologik talab shuki, tadqiqotda muayyan guruh va davr psixologiyasiga mos, sub'ektning hayot tarzida o'z o'zni va salohiyatini olgan milliy an'analar yoki udumlar, faoliyat shakllari tanlab olinishi zarur. Masalan, o'zbek xalqi ruhiyatiga mos va tanish bo'lgan milliy an'analardan bo'lmish hashar kabi jarayonlarga shaxsning munosabatini aniqlash, bu boradagi bilimlari ko'lamini bilish, milliy an'analar va urf-odatlar orasida eng keng tarqalgan va

hayotiy zaruratga aylanganlarini tarbiya vositasida qo'llash samarali omillardandir.

Metodologik nuqtai nazardan yana bir jihat muhimki, xulq atvor tasavvurlarning shakllanishiga sabab bo'luvchi ijtimoiy omillarning har biri aniq maqsadlarga bo'ysundirilgan bo'lishi, har birining shaxsdagi qaysi xulq-atvor ko'rinishlarini keltirib chiqarilishi kuzatilishi zarur. Masalan, maqsadli va aniq mantiqqa yo'naltirilgan darslar va darsdan tashqari tadbirlar muayyan hulq atvor tasavvurlarning boyishi va xulqda hamda shaxsdagi oddiy sifatlardan fazilatlarga aylanmog'i darkor. Maqsadli uchrashuvlar, baxslar va treyning mashg'ulotlari uchun tanlangan mavzularning aniq tuzilgan senariysi bo'lishi va u tarbiyachilar tomonidan bir necha marotaba o'quvchilar bilan faol muloqot jarayonida sinab ko'rilishi darkor. Ana shunday maqsadga bo'ysundirilgan tadbirlar, senariylar hamda dars va muloqot shakllarigina o'spirinlardagi hulq atvor hislatlarga ta'sir ko'rsatib, ularni o'zgarishiga sabab bo'ladi.

Tadqiqot davomida o'quvchilardagi adaptiv hislatlar maxsus testlar va statistik usullar vositasida o'lchandi. Adaptiv sifatlar shunday sifatlar majmuiki, ular ma'lum ijtimoiy ta'sirlar (shaxsiy ta'sir, avtoritet ta'siri, guruh ta'siri yoki tazyiqi) oqibatida sharoitga va talabga mos holda shakllanadigan sifatlardir. Agar shaxsda tadqiqot boshida egoistik ustanovkalar juda kuchli namoyon bo'lgan bo'lsa, tadqiqotdagi shakllantiruvchi eksperiment davomida ularning o'lchovida o'zgarish ro'y bersa, ya'ni baxs, munozara yoki konkret tadbirlarning takrorlanishi oqibatida ko'rsatkich past bo'lsa, demak, konkret shaxsdagi ayni sifat adaptiv, ya'ni o'zgaruvchandir. Bizning shakllantiruvchi eksperimentimiz predmeti safatida ana shunday sifatlar tanlab olindi. Metodologik xulosa shundayki, shaxs hulq atvor tasavvurlari o'zgarishi oqibatida shakllangan adaptiv sifatlar aslida mazmun va mohiyatan milliy an'analar va udumlarning eng qadrli hamda yoshlar psixologiyasiga moslashtirilgan shakllari ta'sirida ro'y bergan bo'lsa, ular shaxsning xulq atvor fazilatlari zahirasini tashkil etadi. Ular nisbatan barqaror, ijobiy hulq atvor hislatlardir.

Demak, maxsus eksperimentlar jarayonida shakllangan xulq atvor tasavvurlar shaxs ma'naviyati asosini tashkil etadi va jamiyatning xulq atvor barqarorligini ta'minlaydi. Ya'ni o'zbek milliy an'analari va qadriyatlarining eng nodir durdonalari ta'lim-tarbiya jarayoniga kiritilsa, ular ushbu jarayonlardagi barcha tarbiya va xulq atvor-ma'rifiy tadbirlarga asos qilib olinib, takrorlansa, yaqqol sharoitda shaxs xulq atvor tasavvurlari egiluvchanligi va o'zgarishini, maqsadga yo'naltirishini ta'minlaydi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, «... o'z xalqiga, uning an'analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatini tarbiyalamasdan turib, o'z xalqiga millatlarning butun jaxon hamjamiyatidagi tenglardan biri sifatida idrok qiluvchi haqiqiy insonni o'z Vatanining jonkuyarini tarbiyalash mumkin emas».

**II-Bob. KICHIK MAKTAB YoSHIDAGI UQUVCHILAR XULQ -
ATVORINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI O`RGANISHNING
EMPERIK TADQIQOT NATIJALARI.**

**2.1.Kichik maktab yoshidagi o`quvchilarning shaxs sifatleri va
tasavvurlarini o`rganish.**

Biz shakllantiruvchi eksperimentda o`zida milliy an`ana va udumlar mazmunini mujassam etgan ijtimoiy omillarni o`rganishdan avval tadqiqotimiz ob`ekti bo`lmish kichik maktab yoshidagi o`quvchilarning shaxs sifatidagi hislatlarini o`rgandik va shu maqsadda tekshiriluvchilarni ikki guruhga – nazorat va tajriba guruhlariga bo`ldik. Maqsadimiz–eksperimental vaziyatlarda xulq atvor tasavvurlar o`zgarishi oqibati sifatida adaptiv hislatlar o`zgarishini kuzatish edi.

Tadqiqotimizda kichik maktab yoshidagi o`quvchilar xulq atvor tasavvurlarini, ularning milliy an`ana va urf-odatlariga nisbatan munosabatlarini anketa va kuzatish metodlari yordamida o`rganishni davom ettirdik. Ular xulq-atvorining qay darajada shakllanganligini aniqlash uchun mukammal, standartlashgan, amaliyotda qo`llanilgan, mashhur Timoti Lirining «Xarakter xususiyati» deb nomlangan testidan foydalandik. Bu test inson xarakter xususiyatlarining qay darajada rivojlanganligini, o`z-o`ziga nisbatan munosabatini baholashga yordam beradi. Bu test yordamida insonning xarakter xususiyatlari 8 ta bo`limda to`la, batafsil aniqlanadi va ular quyidagilardan tashkil topadi.

1. Ustunlilik-hokimlikka intilish.

8 va undan past ballar to`plagan o`quvchi o`ziga ishonadigan, yaxshi maslahatchi bo`la olish, tashkilotchilik va murabbiylik, yo`lboshchilik hislatlarini namoyon qiladi. 8 balldan yuqori ball olgan o`quvchi tanqidni yoqtirmaslik, o`z imkoniyatlarini yuqori baholash, donishmandlarcha gapirish,

boshqalar ustidan xukmronlik qilish, buyruq berish ehtiyojining kuchliligi kabi hislatlarni namoyon qiladi.

2. Mustaqillik-xudbinlik.

8 va undan past ballarni yiqqan o`quvchilarda o`ziga ishonch, mustaqillik, kurashuvchanlik xususiyatlari namoyon bo`ladi. 8 dan yuqori ballarga ega bo`lgan o`quvchilarda esa o`ziga bino qo`yish, o`zini boshqalardan ustun qo`yish, boshqalar fikrini mensimasdan va o`z fikrini to`g`ri, deb tasdiqlash hislatlari mavjuddir.

3. Talabchanlik-tajovuzkorlik.

8 ballgacha ko`rsatgichga erishgan o`quvchilarda samimiylik, to`g`riso`zlik, maqsadga erishish yo`lida sobitqadamlilik ustunlik qiladi. 8 balldan yuqori o`rinni egallaganlarda esa haddan tashqari qaysarlik, o`jarlik, o`zini tuta olmaslik kabi hislatlari mavjudligi kuzatiladi.

4. Ishonchsizlik-shubxalanuvchanlik.

8 ballgacha ko`rsatkichni egallagan o`quvchilarda fikrlash va faoliyatni aniqligi, shubxalanish, kelisha olmaslik illatlari kuzatiladi. 8 balldan yuqori darajada esa qasoskorlik, tanqidni yoqtirmaslik, atrofdagilarga ishonchsizlik bilan qarash kabi hislatlar namoyon bo`ladi.

5. Uyatchanlik-yuvoshlik.

8 balldan kam to`plagan o`quvchida kamtarlik, uyatchanlik, boshqalar vazifasini o`z zimmasiga olish kabi xususiyatlar kuzatiladi. 8 balldan yuqorida esa batamom bo`ysunuvchanlik, o`zini pastga urish, aybdorlik xissasining yuqoriligi ko`zga tashlanadi.

6. Ishonuvchan-tobelik.

8 ballgacha boshqalarning yordami va ishonchiga muhtojlik, tan olinishga nisbatan muhtojlik, 8 balldan yuqorida esa to`la tobelik, faqat boshqalar fikri bilan ish yuritish kabi hislatlar ko`zga tashlanadi.

7. Rahmdillik-hamkorlik.

8 ballgacha boshqalar bilan hamkorlik qilish, atrofdagilarga nisbatan samimiy bo`lish kuzatilsa, 8 balldan yuqorida esa o`ta kelishuvchanlik, o`z

do'stligini haddan ziyod bildirib turish, boshqalar manfaati yo'lida tinimsizligini namoyish qilish kabi hislatlar uchraydi.

8. Xushmuomalalik-fidoyilik.

8 ballgacha har doim yordam berishga tayyorlik, javobgarlik xissining yuqori darajadiligini ko'rsatadi. 8 balldan yuqori ball to'plagan o'quvchilar esa ko'ngilchanglik, o'ta javobgarlik, o'zgalar manfaati uchun kurashish, altruizm hislatlarining namoyon bo'lishi tavsiflanadi.

Qo'llanilgan metodika qisqa tavsifnomalar tizimi ko'rinishiga ega. Ular bo'yicha har bir sinaluvchi o'ziga, o'z «Men»ga baho beradi. Ushbu kuzatish jarayonidagi shaxsning «men»i uning obrazidir. Undagi 128 ta savol tavsifining har biri o'zining tartib raqamiga egadir. Metodikasining modifikatsiyalashtirilgan turida maxsus setka, ya'ni javob varog'i ko'zda tutilgan. Unda 1 dan 128 gacha bo'lgan raqamlar shunday ballarni hisoblashga va tez bajarishga imkon beradi.

Sinaluvchi o'zini punktlar bo'yicha baholayotganda setkada o'ziga mos keluvchi tavsiflarning 1 raqami bilan belgilashi, o'ziga to'g'ri kelmagan savollarni esa ochiq qoldirishi mumkin.

Tajribada quyidagi ko'rsatmadan foydalanish sinaluvchilarga taklif etiladi: sizning qarshingizda insonga xos turli fazilatlar jamlangan savollar varog'i turibdi. Siz ularning har birini diqqat bilan o'qib chiqishingiz va ular sizga to'g'ri kelishi yoki kelmasligini aniqlashingiz zarur. Aniqlashingiz zarur. Agar u to'g'ri kelsa, sizning javoblaringizni qayd etuvchi maxsus setkada kerakli tartib raqamiga «1» sonini qo'ying, mabodo to'g'ri kelmasa, u holda hech qanday belgi qo'ymang. Iloji boricha diqqat bilan oshkora bajaring. Toki sizni qaytadan tadqiq etish zarurati tug'ilmasin. Shunday qilib, «siz, qanday shaxs – siz?».

Shu o'rinda biz olingan ma'lumotlarni qayta ishlash uchun metodikaning ba'zi bir muhim tomonlarini tushuntirib o'tamiz.

0 dan 16 gacha bo'lgan oktantlar bo'yicha son ko'rsatkichlari oktantning raqamiga mos keladigan koordinataga joylashtiriladi. Ular orasidagi masofa 4 ga

bo`linadi: 0, 4, 8, 12, 16 har bir oktant bo`yicha olingan ballarga muvofiq satxda chiziqlar tortiladi. Ko`proq belgilangan oktantlar individning shaxslararo munosabatlarning ko`pincha namoyon bo`ladigan xususiyatlariga to`g`ri keladi. 8 balldan oshmagan xususiyatlar uyg`un rivojlangan shaxslarga taaluqliligini bildiradi. 14-16 sathga etadigan ballar ijtimoiy moslashuvning qiyinligidan dalolat beradi.

Shaxslar orasidagi munosabatlarning birinchi tipi – I, II, III, IV, ya`ni I va II oktantlar fikrlashda mustaqillik, o`z nuqtai nazarini himoya qilish, liderlikka, ustunlikka moyillik bilan farqlansa, III va IV oktantlar esa salbiy oqimlarning ortiqchiligi va janjalga, konfliktga, nizoga moyilligi bilan tavsiflanadi.

Qolgan boshqa 4 ta oktantlar V, VI, VII, VIII, - umumiy qarama-qarshi ko`rinishga ega. Bu oktantdagi ballarning mavjudligi atrofdagilarga qo`shilish, murosaga moyillik, qat`iyatsizlik xususiyatlarining namoyon bo`lishi bilan farqlanadi.

Shuni eslatib o`tish joizki, bu eksperiment ob`ektidagi maktablarning 226 nafar yuqori sinf o`quvchilaridan 80 nafari pedagogik-psixologik tajriba uchun tanlab olindi. Bulardan tashqari boshqa ob`ektlarda ham qo`shimcha tajribalar o`tkazildi va qo`shimcha metodikalardan foydalanildi.

Ushbu test bo`yicha olingan natijalar 1-jadvalda mujassamlashtirildi.

Har ikkala guruh o`quvchilarining har bir oktantlar bo`yicha to`plagan ballarining yig`indisini ularning soniga bo`lib, so`ng har ikkala guruh qatnashchilarida mazkur hislatlarning qay darajada rivojlanganligini o`rtacha arifmetik qiymati hisoblab chiqildi.

T. Liri metodi yordamida olingan natijalar.

№	Hislatlar	Tajriba guruxi	Nazorat guruxi
1	Ustunlik – xokimlik intilish	8,9	8,7
2	Mustaqillik – xudbinlik	6,8	7,8
3	Talabchan – tajovuzkorlik	8,7	7,1
4	Ishonchsizlik – shubhalanuvchanlik	6,8	4,7
5	Uyatchan – yuvoshlik	9,1	9,2
6	Ishonuvchan – tobelik	10,1	10,2
7	Rahmdil – hamkorlik	10,8	9,7
8	Xushmuomilalik - fidoyilik	10,4	10,2

Olingan natijalardan ko`rinib turibdii, Ustunlilik – hokimlikka intilish hislatlari uchun tajriba guruhi 8,9 ball, nazorat guruhi 8,7 ballni to`plashga erishgan. Bu degani, ya`ni 8 balldan yuqorisi o`z imkoniyatlarini oshirishni, tanqidni yoqtirmaslikni bildiradi. Har ikkala guruh o`quvchilarida bu xususiyatlar juda rivojlanmagan bo`lsa-da, lekin hislatlarni yo`q deyishga hulq atvor xaqqimiz ham yo`q.

Mustaqillik-xudbinlik hislatlari uchun to`plangan ballar soni har ikkala guruhda ham 8 balldan kichik, ya`ni bu omil o`quvchilarda o`ziga ishonch, mustaqillik, kurashuvchanlik hislatlarining shakllanganligini ifodalaydi.

Talabchanlik-tajovuzkorlik kabi hislatlar tajriba guruhi o`quvchilarida 8,7 ballni tashkil qilgan, ya`ni ularda qaysarlik, jahldorlik, o`zini tuta olmaslik, tundlik hislatlari mavjuddir. Nazorat guruhida esa 7,1 ball yig`ilgan bo`lib, mazkur guruh a`zolarida samimiylik, to`g`riso`zlik, mqsadga erishishda sobitqadamlilik mavjudligini bildiradi.

Ishonchsizlik-shubhalanuvchanlik hislatlari bo`yicha olingan natija har ikkala guruhda ham yig`ilgan ballarning qiymati 8 balldan kichik, demak har

ikkala guruh a`zolarida fikrlash va xatti-harakatlarning aniqligi, shubhalanish va olmaslik hislatlari mavjud ekanligidan dalolat beradi.

Uyatchanlik-yuvoshlik sifatleri bo`yicha to`plangan ballar yig`indisi har ikkala guruhda ham 8 balldan yuqori, ya`ni bo`ysunuvchanlik, o`zini pastga urish, ko`p hollarda o`zini aybdor deb xis qilish kabi xususiyatlar shu guruh o`quvchilariga xosdir.

Ishonuvchanlik-tobelik hislatlari yuzasidan tajriba guruhida umumiy ballar 10,1 ko`rsatgichni bergan bo`lsa, nazorat guruhida bu raqam 10,2 ko`rsatgichni tashkil qiladi. Har ikkala guruhda bu hislatni, ya`ni boshqalar fikri bilan ish ko`rish, kelishuvchanlikni juda yuqori darajada rivojlanganligini ko`rsatadi.

Rahmdillik-hamkorlik hislatlari ham ikkala guruh o`quvchilarida 8 balldan yuqori ko`rsatkich mavjuddir. Kelishuvchanlik, o`z do`stligini xaddan ziyod bildirib turish, boshqalar manfaati yo`lida tinim bilmaslik kabi xususiyatlar har ikkala guruh o`quvchilarida bir xil shakllanganligi namoyon bo`ldi.

Xushmomilalik-fidoyilik hislatlari tajriba guruh o`quvchilarida 10,4 ballni tashkil qilgan bo`lsa, nazorat guruhida u 10,2 ballga egadir, ya`ni har ikkala guruh o`quvchilarida ko`ngilchanlik, javobgarlik, o`zgalar manfaati uchun kurashish, al`turizm kabi xulq-atvorning sifatleri shakllanganligi bo`yicha yaqinlik, o`xshashlik mavjuddir.

Eksperiment natijalari metodikada nazarda tutilgan hislatlarning har ikkala guruh o`quvchilarida deyarli bir xil rivojlanganligini aniqlab berdi.

Bu yuqorida berilgan oktantlar bo`yicha xulq-atvorning o`zbek etnik xarakteriga xos bo`lgan hislatlarni ham ko`rishimiz mumkin, bular: hamkorlik, tobelik, uyatchanlik, kamsuqumlik, itoatkorlik, bo`ysunuvchanlik, kelishuvchanlik, xukmronlik, javobgarlik, mas`uliyatlilik, mehmondo`stlik, kengfe`llik kabilardir. Bu hislatlarning xulq-atvorda mavjudligi o`zbeklar milliy xarakteri va psixik qiyofasidagi eng asosiy xususiyatlaridan bo`lmish o`troqlik darajasining yuqori ekanligi xatti-harakat, xulq shakllarini tanlashda qo`ni-

qo'shnilar, qarindosh-urug'lar, mahalla ahliga moslashtirish ko'nikmalarining kuchliligi bilan izohlanadi.

O'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari tahlili orqali o'quvchilarda mustaqillik, ustunlilik, o'ziga ishonch xususiyatlarining etarli darajada shakllanmaganligini ko'rishimiz mumkin. Xuddi shuningdek, xulq-atvorning salbiy hislatlari, ya'ni illatlari: ishonchsizlik, shubhalanuvchanlik, o'zgalar bilan kelisha olmaslik, tez-tez tushkunlikka tushib qolish kabilarning mavjudligi, tobelik, o'ta itoatkorlik o'quvchilarning xarakterida rivojlanganligi ham tajribada aniqlandi.

Eksperimentning aniqlovchi bosqichidan olingan natijalar matematik hisoblash usuli χ^2 (xi-kvadrat) metodi yordamida qayta ishlandi. Bunda har bir oktantlar bo'yicha yig'ilgan ballar yig'indisi quyidagi darajalarga bo'lindi.

1-daraja 0...6 ballar kuchsiz rivojlangan.

2-daraja 7...11 ballar o'rtacha rivojlangan.

3-daraja 12...16 ballar kuchli rivojlangan.

Olingan miqdoriy natijalar χ^2 (xi-kvadrat) formulasiga solindi.

$$\chi^2 = \frac{1}{n_1 \cdot n_2} \in \left(\frac{n_1 P_2 - n_2 P_1}{P_1 + P_2} \right);$$

Izoh: P_1 – tajriba guruhdan olingan natijalar chastotasi, P_2 – nazorat guruhdan olingan natijalar chastotasi P_4 – tajriba guruh o'quvchilar soni, P_2 – nazorat guruh o'quvchilar soni.

χ^2 -(xi-kvadrat) metodi bo'yicha olingan arifmetik qiymatlarning nazariy jihatdan to'g'riligini ko'rsatuvchi muhim mezondir.

Quyidagi jadvalda xarakter hislatlarining tajriba va nazorat guruhlardagi farqini: $P = 0,05$ bo'lganda, χ^2 (standart) = 5,991 tengdir.

Izoh: jadvalda berilgan natijalarning «3»-xarakter hislatlari kuchli rivojlangan o'quvchilar, «2»-xarakter hislatlari o'rtacha darajaga ega o'quvchilar, «1»-xarakter hislatlari kuchsiz darajali o'quvchilarni bildiriladi.

Ushbu xususiyatni aniqlash uchun T.I.Pashukovning «Shaxsning egotsentrizm xususiyatini aniqlash» nomli psixologik testidan foydalandik.

Bu test so'rovnomasi 40 ta tugallangan gaplardan iborat bo'lib, sinaluvchilar ana shu tugallangan gaplarni shunday to'ldirib davom ettirishlari kerakki, natijada ularda aniq, tugallangan fikr vujudga kelsin.

Natijalarni ishlab chiqishdan asosiy maqsad-sinaluvchilar topshiriqni to'liq bajarishgandagina keyin materiallarni hisoblab chiqish muayyan ma'no kasb etishidir. Shuning uchun o'quvchilar bilan test o'tkaziladigan har bir gap oxiriga etkazilishiga ahamiyat berish lozim. Agar o'nta gap tugallanmay qolgan bo'lsa, u holda test tahlil qilinmaydi. Egotsentrik indeks sub'ektning o'zi haqidagi ma'lumotlar yordamida aniqlanadi. Bu ma'lumotlar 1-shaxs birlikda kelgan olmoshlar orqali ko'rinadi.

Bu metodika 4-sinf o'quvchilarining nazorat va tajriba guruhlarida o'tkazildi. Olingan natijalarning qiyosiy tavsifi quyidagi jadvalga mujassamlashtirildi.

2.1.2-jadval

Egotsentrizm yo'nalganligi darajasi.

№	Sinflar	Jinslar	Ballar darajasi		
			«past»	«o'rta»	«yuqori»
1	4-sinf	Ug'il bolalar	0-8	9-22	23-10
		qizlar	0-9	10-23	24-10

Agar biz bu metod yordamida olingan natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak, ular quyidagicha:

Tadqiqot natijalari tajriba sinf o'quvchilarining o'g'il bolalarida umumiy 23,2 ballni ko'rsatgan bo'lsa, qizlarda esa umumiy ball 24,4 ni tashkil qiladi. Nazorat guruhida esa o'g'il bolalarning umumiy balli 27,2 ga teng, qizlarniki esa 24,2 ballga barobardir. Ushbu natijalardan ko'rinib turibdiki, har ikkala guruh o'quvchilarining egotsentrizm xususiyatlari yuqori darajagi egadir.

Xarakterning bu xususiyati milliy xarakterda unchalik namoyon bo'lmasa-da, lekin ilk o'spirinlik yoshida bu xususiyat kuzatiladi.

Kichik maktab davridagi jo'shqinlik, shijoatkorlik, harakatchanlik, har qanday topshiriqni o'z imkoniyatlariga qaramay bajaraman deb zimmasiga olishi, atrofdagilarning diqqat markazida turishga intilishning yuqori ekanligi kabi xususiyatlari ko'pincha namoyon bo'ladi. Bu omil shu yoshga xos xususiyatdir. Lekin har qanday xulq-atvor ko'rinishlari shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga nisbatan qarashiga bog'liq.

Biz har ikkala test natijalari bo'yicha olingan ma'lumotlarni ishtirokchilar xulq-atvorini qay darajada shakllanganligiga qarab, «yuqori», «o'rta», «past» darajalarga ajratdik.

Tajriba guruhida xarakterning hislatlari 1 ta o'quvchida «yuqori», 38 ta o'quvchida o'rta, 1 ta o'quvchida «past» darajada shakllangandir. Nazorat guruhida 1 ta o'quvchida «yuqori», 36 ta o'quvchida «o'rta», 3 ta o'quvchida «past» darajaga ega. Bu natijalarga binoan har ikkala guruh o'quvchilarining hulq atvor tasavvurlari va hulq atvor hislatlari bir xil rivojlanganligi namoyon bo'lmoqda.

O'quvchilarning milliy an'ana va urf-odatlariga nisbatan munosabatlarida hulq atvor tasavvurlari va hulq atvor hislatlarining rivojlanishi yoki susayishi, ya'ni an'ana va urf-odatlarning o'quvchi ma'naviyatiga ta'siri bor yoki uning yo'qligi muammosini navbatdagi tadqiqot bosqichida o'rganamiz.

Olingan natijalar bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin: T.Lirining «Xarakter xususiyati» va T.I.Pashukovning «Shaxsning egotsentrizm xususiyatini aniqlash» psixologik testlar orqali o'quvchilardagi mustaqillik, kamtarlik, hamkorlikka intilish, o'zgalarga nisbatan do'stona munosabat hissi, javobgarlik, kengfe'llik, al'truizm kabi ijobiy hulq atvor sifatlar va tanqidni to'g'ri qabul qilmaslik, o'z imkoniyatlarini oshirish, zulmkorlik, hokimlik, boshqalardan ustunligini bildirish, guruhda yakkaboshlik, qaysarlik, o'jarlik, o'zini tuta bilmaslik, jahldorlik, ishonchsizlik, shubhalanuvchanlik, tamomila tobelik, tortinchoqlik, faqat boshqalarning fikri bilan ish ko'rish kabi salbiy

hislatlarni aniqlashga muvaffaq bo`lindi. Shunday qilib, tekshirish bosqichida amalga oshirilgan izlanishlardan 2 ta muhim xulosani ilgari surishimiz mumkin.

1. O`quvchilarning milliy urf-odat va an`analarga nisbatan munosabatlarini aniqlashga qaratilgan metodikalar optimal ekanligini ko`rsatdi va aniqlashga qaratilgan metodikalar optimal ekanligini ko`rsatadi va ularning har qaysisi o`ziga xos xususiyatga hamda qiymatga ega bo`lishini namoyish qildi.
2. T.Liri va T.I.Pashukovlarning metodikalari ishtirokchilarning xarakter hislatlari hamda ularning egotsetrizmga taaluqli o`ziga xoslikni aniqlashga imkon beradi. Bu bilan shakllantirish imkoniyatlaiga muvofiq yo`nalish bilan bog`liq muhim gart-sharoitlar yaratilishga zamin tayyorlandi.

2.2. Milliy an`analar ta`sirida kichik maktab yoshidagi o`quvchilarda xulq atvorini shakllanishi va namoyon bo`lish shartlarini tadqiq etish.

Milliy an`analar o`zining paydo bo`lish xususiyati va rivojlanishiga binoan doimiy ravishda ta`sir etuvchi omil sifatida ijtimoiy hayotda hukm suradi. An`analar millatning o`zligini saqlash, ularni nishonlash, amalga oshirish ketma-ketligi esa, o`tmish, hozirgi zamon va kelajak o`rtasidagi uzviylikni ta`minlashning eng muhim sharti hisoblanadi. Milliy urf-odat va an`analar unutilgan, yo`qotilgan taqdirda millat asta-sekin o`ziga xoslikni yo`qota boradi, milliy g`urur, iftixor tuyg`ulariga putur etadi. Milliy urf-odatlarni, marosim va an`analarni qayta tiklash yo`lida amalga oshirilayotgan ishlar milliy davlatchilik qurilishining o`zagi bo`lib qolishi, shak-shubhasiz.

Psixologiyada qabul qilingan umumiy qoidaga ko`ra, inson shaxsining shakllanishi va ayni paytda shakllantirish jarayoni bir necha yosh davrlarga bo`lib o`rganiladi.

Har bir yosh davri o'z jismoniy va aqliy rivojlanish xususiyatlariga, o'z etakchi faoliyat turiga va ta'sir o'tkazish nuqtai nazaridan yondashish tamoyiliga ega.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ahloqiy va xulq atvor hislatlarini shakllantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi. Bu davrda o'quvchida intizomga, bilimga, o'z-o'zini tarbiyalashga chanqoqlik tuyg'usi paydo bo'ladi. U atrof muhit qonuniyatlarini bilishga intiladi. Ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, savob va gunohni farqlaydi hamda ular mohiyatiga tushuna boradi. O'spirinlik davrida ezgulik vositasida vujudga kela boshlagan shaxs tuzilishining asosi bu davrda yuqoridagi tushunchalar bilan mustahkamlanadi hamda shaxsni shakllantirishning eng qat'iy usullarini qo'llash, intizomning har qanday ko'rinishlariga murojaat qilish joiz bo'ladi. Bu davrda o'spiringa bola deb emas, balki tengqur, do'st, o'rtoqdek muomala qilinadi, natijada unga inson hayot faoliyatining hamma sohalarini o'zlashtirish uchun sharoit yaratiladi va oqibatda uning fikriga ahamiyat beriladi.

Sharqona bola tarbiyasining yana bir muhim tomoni shuki, unda faqat shaxsning ruhan barkamol va jismonan sog'lom bo'lishiga e'tibor berilishidan tashqari, uni hayot faoliyatining hamma sohalariga, xulq-atvor shakllariga alohida e'tibor beriladi.

Bu davrda shakllangan har qanday ijobiy yoki salbiy hislat keyinchalik barkaror shaxs xususiyatlariga aylanibqoladi. Aynan shu davr, bir tomondan, shaxsning tarbiyaga moyilligining kuchliligi, ikkinchi tomondan, tashkiliy ta'lim-tarbiya, oila, mahalla, jamiyatchilik kabi omillar ta'sirining barqarorligida ifodalanadi. Ushbu jihatlarni hisobga olgan bu bosqich alohida e'tibor talab qiladigan, muhim ahamiyatga molik tarkib toptirish pog'onasidir.

Mazkur bosqich yuqorida ta'kidlaganimizdek, hulq atvor hislatlarning shaxs xususiyatlariga aylanishi bilan e'tiborga molikdir. O'zbek xalqi etnopsixologiyasi qonuniyatlarga ko'ra, bu davrda o'spirinlarda tarbiyaning tashkiliy tomonga va muhit ta'siriga moyillik ancha yuqori bo'ladi. Ushbu jihatlarni hisobga olinganda, birinchi bosqichning inson shaxsi shakllanishidagi

imkoniyati ancha yuqori hisoblanadi. Shaxs xususiyatlari nuqtai nazaridan bu bosqichning yana bir alohida ahamiyati shundan iboratki, unda o`spirinlarda asosiy hayotiy tasavvurlar, ya`ni oilaviy, kasbiy, ijtimoiy faoliyatga aloqador tasavvurlari shakllanadi-ki, natijada ular mazmun va mohiyatan hulq atvor tasavvurlar hisoblanadi.

Xulq atvor tasavvurlarning aksi tashqi faoliyatga namoyon bo`lib, inson faoliyatining u yoki bu turiga munosabatlarida aks etadi. Bu munosabatlar atrof borliqqa, ijtimoiy jarayonlarga, o`z-o`ziga bo`lgan, mehnatga nisbatan munosabatlar kabilardir.

Tadqiqot ishi Nukus shaharidagi №18 maktabda o`tkazildi.

Anketa savollari tuzilish xususiyatlariga ko`ra ikki guruhga ajratilgan bo`lib, birinchi guruh an`analarning ijtimoiy mavqeini bildiruvchi savollar, ikkinchi guruh esa an`analarning tarbiyaviy mohiyatini aks ettiruvchi savollardan tashkil topgandir.

1-savol. Odatda har qanday urf-odat va an`analar ma`lum san`alar bilan yoki har qanday udumlar, ma`lum hodisalar bilan bog`liq bo`ladi. Quyidagi berilgan an`anaviy udum va an`analardan qaysi birlari sizga tanish va ular haqida sizning fikringiz qanday?

1. Navro`z
2. Qushlar bayrami
3. Hashar
4. Gullar bayrami
5. Sumalak
6. Hayit

Javob variantlari: a) biladi, ishtirok etgan, b) biladi, lekin ishtirok etmagan, v) to`la tasavvurga ega emas, g) hech qanday tasavvurga ega emas.

Quyida ana shu savol yuzasidan olingan natijalarni umumlashtirilgan holda jadvalini keltiramiz.

2.2.1-jadval

Kichik maktab yoshidagi o`quvchilarning milliy an`analar
haqidagi tasavvurlari.

№	An`analarning nomi	Biladi, ishtirok etgan	Biladi, lekin ishtirok etmagan	To`la tasavvurga ega emas	Hech qanday tasavvurga ega emas	Tanishligi (O`rin)
1	Navro`z	88,90	11,10	-	-	1
2	Qushlar bayrami	66,20	19,90	10,50	-	4
3	Gul bayrami	58,50	33,10	6,10	-	6
4	Sumalak	54,60	13,50	9,50	2,80	2
5	Hashar	86,50	76,10	-	-	5
6	Hayit	14,00	18,80	9,90	-	3

Jadvaldan ko`rinib turibdiki, 50 nafar o`quvchilarning 88,90 foizi Navro`z bayramini biladi va ishtirok etgan, 11,10 foiz esa bu bayramni biladi, lekin ishtirok etmaganligini ko`rsatmoqda. Sumalak an`anasi o`quvchilarning 86,5 foizi biladi va ishtirok etganligi, 13,5 foizi esa biladi, lekin ishtirok etmaganligi to`g`risida fikrlarini bildirdilar.

Navro`z an`anasi bundan 2000 yil avval ham mavjud bo`lib, ko`pgina mamlakat xalqlarining ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi hayotiy tajribalarni ifodalovchi usul sifatida xukm surgan. Bu an`ananing nomi forsiy tilda "Nav"-yangi, "Ro`z"-kun degan ma`noni anglatadi. Tabiat uyg`onishi, kun va tun tengligi, dala ishlarining boshlanishi kabi ijtimoiy-tabiiy hodisalarni aks ettirib kelgan. "Yil boshi" yangi yil sifatida ham mashhur bo`lgan. Navro`z kelishi bilan dalalarda yangi mehnat mavsumi boshlanadi, sayllar, tomoshalar, turli o`yinlar, musobaqalar, xalq ijodiy ko`riklari, maxsus taomlar tayyorlash kabi tadbirlar o`tkaziladi.

Navro`zning ijtimoiy psixologik mohiyati shundan iboratki, unda rasmiy va norasmiy, tashkiliy va olomon, shartli va shartsiz, geterogen va gemogen, makro va mikroguruhlar tarkibida shaxslar ishtirok etadilar.

Individual, guruh, ommaviy harakatlar o'zaro uyg'unlashib, ishtirokchilarda onglik va ongostlik shakllari ta'sirida faollik ko'rsatishga zamin hozirlaydi. Ijtimoiy hodisa sifatida taqlid, yuqish va ta'sirga berilish negizida faoliyatni vujudga keltiradi. Kommunikativ, interaktiv va pertseptiv aloqalar ta'sirida muomilaga kirishiladi va hamkorlik vujudga keltiriladi. Navro'z ishtirokchilarida xarakterning tabiatga, jamiyatga, o'z-o'ziga va o'zga odamlarga nisbatan munosabati hislatlari shakllantiriladi. Xis-tuyg'ularning o'nlab yuksak shakllari tarkib topadi. Demak, Navro'z xususidagi yoshlar tasavvurlari ancha mukammal.

Hashar an'anasi o'zbek xalqining tarixiy an'alaridan biri hisoblanib, unda o'ziga xos jamoa bo'lib mehnat qilish, o'zaro yordam ko'rsatish va hamjihatlikni, amalga oshirishning elementlari mavjuddir. Ma'lumki, hashar jarayonida turli yoshdagi kishilar ishtirok etib, xar qaysi o'z imkoniyatidan kelib chiqib muayyan faoliyatni amalga oshiradi. Hasharda ko'pchilik bo'lib hamkorlik faoliyati vujudga keltiriladi. Individual mehnat zahmati jamoaviy va ommaviy xatti-harakat tufayli engillashtiriladi. Natijada individuallik umumiyatga va umumiyat individuallikka uzluksiz o'tib turish jarayoni yuzaga keladi. Umumiy harakatlar ta'sirida shaxsda mehnatga nisbatan ehtiyoj tug'iladi. Mehnatning ehtiyojga aylanishi ijtimoiy taraqqiyot zamini va kafolati hisoblanadi. Erkin, holisona mehnat faoliyati "Men" bilan "Biz" o'rtasidagi mexanizmni barqarorlashtiradi, tekin mehnat ishtirokchilarda ijtimoiy burchni shakllantiradi. Mazkur an'anda ishtirok etish hamkorlik, hamdardlik, o'zaro beg'araz yordam, o'rtoqlik, ayanch, quvonch va samimiyat xislarini tarkib toptiradi.

Hashar an'anasi haqida o'quvchilarning 81,2 foizi biladi va ishtirok etganligi, 18,8 foizi esa biladi, lekin ishtirok etmaganligi haqida o'z fikrlarini bildirdilar.

Qishloq joylarida hashar, ayniqsa, yolg'izqo'l oilalarga ko'pchilik bo'lib yordam ko'rsatish, uning mehnatini engillashtirish orqali amalga oshiriladi. O'spirinlar ana shu an'alarda faol ishtirok etish tufayli real yordamlari bilan

ijtimoiy faoliyatga kira boshlaydilar. Hasharda "ko`pchilik shunday qilyaptiku", degan tushuncha bilan ishtirok etilsa-da, lekin bu faoliyatni bajarish jarayonida ma`lum bir umuminsoniy tajribalar egallanadi. Mazkur jarayonlarda uzluksiz qatnashish natijasida ularda mehnatsevarlik, insonparvarlik hislatlari shakllanadi.

Psixologik nuqtai nazardan an`analar tahlil qilinganda, milliy an`analar diniy an`analar bilan uyg`unlashib, qo`shilib ketganligiga ishonch xosil qilish mumkin. Ko`pgina manbalar bilan tanishish va shaxsiy kuzatishlarning guvohlik berishiga qaraganda diniylik bilan milliylik o`rtasida bevosita bog`liqlik mavjud bo`lib, ular o`zaro bir-birlarini uzluksiz ravishda to`ldirib turadi yoki biri ikkinchisining yorqin ifodalanishini ta`minlashga xizmat qiladi. Shuni ta`kidlab o`tish joizki, ularning kelib chiqishida ham o`zaro zarurat, o`zaro taqozolik mavjud bo`lgan va qaysidir tomoni bilan iloxiy kuchlarga guruhliy harakat uyushtirish negizida vujudga kelgan. Shuningdek, milliy an`analar bir necha dinlarning ta`siri tufayli yaratilgan bo`lishi ehtimoldan holi emas. Chunki diniy an`analar bir necha dinlar xukmronligi davrida yuzaga kelishi, shaklan o`zgarishi, takomillashishi mumkin. Islom xukmronligida yurtimizga kirib kelgan an`analardan biri - bu hayitdir, uning bir necha funksiyalari mavjuddir (motivatsion, emotsional, irodaviy, kognitiv, regulativ) va ular xarakter hislatlarini shakllantirishda ishtirok etadi.

Hayit an`anasi haqida o`quvchilarning 14,5 foizi biladi va ishtirok etganligi, 18,80 foizi biladi, lekin ishtirok etmaganligi, 9,90 foizi to`la tasavvurga ega emaslar.

Hayit arabcha iyd-bayram - musulmonlarning diniy bayramidir. Islom dinida ikkita hayit rasman diniy bayram sifatida nishonlanadi: katta hayit yoki qurbon hayiti va kichik hayit.

Ro`za hayit. Qurbon hayitida qurbonlik qilish kabilar Islom dinining rasm-rusumlari bilan bog`liq ravishda yuzaga kelgan. Hayitdagi bu marosimlarga xalqlarning mahalliy odatlari: arafa kuni osh ulashish, yangi kiyim kiyish, "hayitlik" berish, sayr qilish, dam olish, yaqin, bemor kishilarni ko`rish

Islom diniga e'tiqod qilgan xalqlarning dam oladigan bayramlariga aylanib qolgan.

"Islom dini bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham iymon, ham ahloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik. U quruq aqidalar yig'indisi emas. Ana shu ma'rifatni kishilarimiz jon-jon deb qabul qiladilar. Mehr-oqibatli, nomusli, oriyatli bo'lishga, izzat-ehtirom tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar", degan edi I.A.Karimov.

Hozirgi davrda inson xissiyotini, xulq-atvorini boshqarishda, ahloqan va aqlan mukammal insonlar sifatida ijobiy sifatlarni egallashda, ularni shakllantirish imkoniyatlaridan unumli foydalanishda din hulq atvor tarbiya roli o'ynashi mumkin. Emotsional-irodaviy fazilatlarni tarkib toptirishda, odamlarni o'z-o'zini boshqarishga o'rgatishda dinning boy ijtimoiy-tarixiy tajribasi mavjud. Lekin borliqni bilish, inson imkoniyatlarini ishga solish muammolari bo'yicha din bilan fan o'rtasida qarama-qarshiliklar hukm suradi. Chunki insonning aql-zakovati, kuch-quvvati, yaratuvchanlik imkoniyati to'g'risida ziddiyatli fikrlar o'z echimini kutib turibdi.

Diniy an'ana bo'lmish Hayit o'quvchilarning mulohazalariga ko'ra allaqachonlar milliylik mohiyatini o'zida aks ettirib kelmoqda. Uning ijobiy tomonlari shuki, bunda milliy kayfiyat, milliy ehtiros, milliy yuksak tuyg'ular, empatiya va hamdardlik, hamkorlik xislari shakllanadi. U ham ijobiy adaptiv hislatlarning asosi bo'lib, xulq atvor tasavvurlar asosida tarkib topadi.

An'analar tariqasidagi gullar va qushlar bayrami tabiat go'zalligi, gullar va o'simliklarni e'zozlash, saqlash xamda ko'paytirishga bag'ishlangan ijtimoiy tadbiridir. Gullar bayrami an'anasi haqida o'quvchilarning 58,50 foizi biladi va ishtirok etganligini, 35,40 foizi tasavvurga ega lekin ishtirok etmaganligini, 6,10 foizi esa to'la tasavvurga ega emasliklarini bildirishgan. Gullarning yangi navi qushlarning yagona turlariga va hayotga chidamliligiga qarab, hakamlar bu bayramning g'oliblarini aniqlaydilar. Muomala va muloqat jarayonlarida muayyan marom egallanadi va xarakterning ash'yolarga, tabiatga

nisbatan munosabati shakllanadi. Lazzatlanish, nafosat tuyg`ulari uyg`onib, qatnashchilar faolligini orttiradi, xamkorlik, intilish tuyg`usini vujudga keltiradi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichiga va unda qo`lga kiritilgan ma`lumotlarga murojaat qilib, umumiy tarzda shuni qayd etishimiz mumkinki, yuqori sinf o`quvchilarining milliy an`analar va bayramlar to`g`risidagi ijtimoiy tasavvurlari umuman shakllangan. Bu an`analarning deyarli yarmida, ya`ni umuman ko`rsatkichlarning o`rtacha arifmetik qiymatiga e`tibor berilsa, 48,9 foiz ko`rsatkich bilan ularning bu an`analarni bilishi hamda ularda bevosita ishtirok etganlari haqida ma`lumotga ega bo`lish mumkin. Lekin bu ko`rsatkich el orasida keng tarqalgan, ayniqsa, mustaqillik yillarida qayta tiriltirilgan bayramlar va qadriyatlarimiz - «Navro`z» bayrami, undagi sumalak solish rasm-rusumlari, hayit kabilardir.

Milliy an`analar haqida umuman tasavvurga ega bo`lmaganlikning o`rtacha qiymati 11,30-ya`ni boshqa ko`rsatkichlarga nisbatan qiymatsiz bo`lsa-da, lekin aslida biz munosabat bildirish uchun tavsiya etgan marosimlar, an`analar va bayramlarning mashhurligidan kelib chiqadigan bo`lsak, bu ham tarbiyachilarni tashvishga soladigan holatdir.

Savol: An`analar o`quvchilarga, ularning xulq-atvorlarini shakllanishiga qanday ta`sir ko`rsatadi? Bu savolga berilgan javoblar umumlashtirilib 2.2.2-jadvalda berilgan.

2.2.2-jadval

Kichik maktab yoshidagi o`quvchilarlarining tasavvurida milliy an`analarning ijobiyliigi haqidagi ko`rsatkichlar

№	Bildirilgan fikrlar	O`quvchilarning javob- lari % hisobida	O`rin
1	Faqat ijobiy ta`sir ko`rsatadi.	47,1	1
2	Ular ba`zan rivojlanishni sekinlatib qo`yishi ham mumikn.	2,9	5
3	Taraqqiyotga yangi g`oyalarni kirib,	5,3	3

	singib ketishiga to'sqinlik qiladi.		
4	Umuman jamiyat taraqqiyotida va tarbiya tsivilizatsiyasining eng so'ngi yutuqlari asosida bo'lishi kerak.	4,6	4
5	Bu haqda o'ylab ko'rmaganman.	40,1	2

Tajribada ishtirok etgan o'quvchilarning 47,1% "faqat ijobiy ta'sir ko'rsatadi" deb belgilashgan. Chunki ular milliy an'analar haqida muayyan tushuncha va tasavvurlarga egadirlar. Ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini o'quvchilar to'la tushunib etadilar. Ularning turar joylarida bunday tadbirlar bevosita amalga oshirib turiladi.

"Ular ba'zan rivojlanishni sekinlatib qo'yishi ham mumkin" degan xususiyatli javob 2.9% ni tashkil qiladi. "Taraqqiyotga yangi g'oyalarni kirib, singib ketishiga to'sqinlik qiladi" degan javobga nisbatan esa 5.3% ishtirokchilar o'z fikrlarini bildirganlar, muayyan fikr bildirgan ishtirokchilar milliy an'analar, urf-odatlarini diniy an'analar bilan qorishtirib, aralashtirib tushunadigan o'quvchilar toifasini vujudga keltiradi.

Ular milliy an'analarning har bir jabhaga ijobiy va salbiy ta'sirini shu muhitda yashayotgan hamda mazkur an'analar va urf-odatlarga amal qilayotgan odamlarning qadriyatlarga nisbatan munosabatlarida deb tushunadilar.

"Bu haqda o'ylab ko'rmaganman", degan javob 40.1% ni tashkil qiladi. Bunday fikrdagi o'quvchilar milliy an'ana va urf-odatlarga turmushda bevosita amal qisalar-da, lekin ularning mohiyatini to'la anglab etmaydilar, deb xulosa chiqarish mumkin.

Anketa savollariga berilgan javoblar taxlilidan shu narsa aniqlandiki, o'quvchilar milliy an'ana va urf-odatlarini juda yaxshi bilishadi, bu haqda ma'lum darajada tasavvurlarga ega. Chunki o'quvchilar ularda bevosita ishtirok etishadi, kundalik hayotlarida qo'llashadi, lekin ularning asl mohiyati, kelib chiqish tarixi, tarbiyaviy imkoniyatlarini to'la tushunib etmaydilar. Bizning fikrimizcha, bu narsalarga asosiy sabab umumiy o'rta maktablarning tarbiyaviy

ish rejalarida milliy anʼanalarga oid maʼlumotlarning juda kamligi, ota-onalarning anʼanalar haqidagi ilmiy maʼlumotlarga ega emasliklaridir. Shunday omillar qatoriga milliy anʼanalarni ilmiy oʻrganishni yoʻlga qoʻyilmaganligini kiritish mumkin.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda oʻquvchilarning milliy urf-odat va anʼanalar haqidagi tasavvurlari va ayni paytda ular xulq-atvorida qaysi milliy hislatlarning mavjud ekanligi va bu hislatlarning qay darajada shakllanganligini ilmiy ishimizning keyingi bosqichlarida toʻla yoritishga harakat qilamiz.

2.3. Shakllantiruvchi eksperiment sharoitida ijobiy xulq atvorning taraqqiyotini oʻrganish.

Biz yuqoridagi omillarning oʻquvchi xulq atvor tasavvurlari shakllanishiga taʼsir etuvchi manba sifatida maktab oʻquv yoʻnalishlariga oʻzgartirishlar kiritib, ular faoliyatlarini tashkil etishda foydalandik. Bu omillar oʻquvchi xulq atvor tasavvurlarini shakllantirishning ahamiyati haqida oʻqituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar bilan oʻtkazilgan tadqiqot ishlarida quyidagi holatlarni hisobga olishlari kerakligini belgiladik.

1. Amalga oshirilgan tadbir oʻquvchi uchun shaxsiy ahamiyat kasb etadimi?

2. Bu tadbir nimasi bilan oʻquvchini oʻziga tortdi, uning qiziqishlarining asosi nimada?

3. Tarbiyaviy jarayon taʼsirini oʻspirin hissiy tuygʻularida boshidan kechirdimi?

Oʻquvchining faolligi tadbir jarayonida koʻrindimi, uning anʼanalarga boʻlgan munosabati ijobiylashdimi?

Mana shu holatlarni har birini chuqur anglab etgan har qaysi tarbiyalanuvchi xulq atvor tasavvurlarining shakllanishi uchun koʻmak beradi deb hisoblaymiz.

Tajriba guruhi o'quvchilarida 2 yil davomida olib borgan bunday ishlarimizning ularda xulq atvor tasavvurlari shakllanishiga ta'sir etganligi yoki etmaganligini bilish maqsadida 2-bosqich, ya'ni tekshiruvchi eksperimentni amalga oshirdik. Bunda T.Lirining «Xarakter xususiyati», Ch.Oskudaning «Semantik differentsial» va I.T.Pashukovning «Shaxsning egotsentrizm xususiyatini aniqlash» psixologik testlaridan tekshiruvchi bosqichda ham ikkala guruh, ya'ni tajriba va nazorat guruh o'quvchilari fe'l-atvori va tasavvurlaridagi farqni aniqlash maqsadida qayta foydalandik. Bu o'tkazilgan eksperimental ishimizda T.Liri testi orqali olingan natijalarni quyidagi jadvalda keltiramiz.

8-jadvalda harakter hislatlarining 8 ta oktantlari bo'yicha tajriba va nazorat guruh o'quvchilarining umumiy ballarini o'rtacha arifmetik qiymati berilgan. Bu olingan natijalardan ustunlilik-hokimlikka intilish hislati uchun tajriba guruh 8,7 nazorat guruh 9,7 ballni ko'rsatgan. Tajriba guruhda bu hislat birinchi bosqichda 8,9 ballni tashkil qilgan bo'lsa, 2-bosqichda 8,7 ballni ko'rsatdi, ya'ni olib borgan tadqiqotlarimiz bu hislatni ozgina pasayishiga sabab bo'lgan. Tanqidni yoqtirmaslik, o'z imkoniyatlarini oshirish kabi hislatlar oz bo'lsada pasaygan. Nazorat guruhlarida esa 1-bosqichda bu hislat 8,7 ballni ko'rsatgan bo'lsa, 2-bosqichda 9,7 ballni bergan. Ya'ni, tanqidni yoqtirmaslik, o'z imkoniyatlarini oshirish kabi hislatlar oshgan.

2.3.1-jadval

T. Liri metodi yordamida olingan 2-bosqich natijalar.

№	Hislatlar	Tajriba guruxi	Naxorat guruxi
---	-----------	-------------------	-------------------

1	Ustunlik – hokimlik intilish	8,7	9,7
2	Mustaqillik – xudbinlik	8,1	3,7
3	Talabchan – tajovuzkorlik	6,7	8,2
4	Ishonchsizlik – shubhalanuvchanlik	8,2	7,2
5	Uyatchan – yuvoshlik	10,9	8,3
6	Ishonuvchan – tobelik	10,7	10,2
7	Rahmdil – hamkorlik	11,2	9,9
8	Xushmuomilalik - fidoyilik	11,8	10,2

Mustaqillik-xudbinlikka intilish hislatlari tajriba guruhda 1-bosqichda 6,8 ballni tashkil etgan bo`lsa, 2-bosqichda 8,1 ballni ko`rsatdi. Bu omil shu sinf o`quvchilarida o`ziga ishonch, mustaqil kurashuvchanlik hislatlari rivojlanganligini aniqladi. Nazorat guruhlarida esa 1-bosqichda bu hislat 7,8 ballni ko`rsatgan bo`lsa, 2-bosqichda 3,7 ballni namoyon etgan. Ya`ni bu guruh o`quvchilarida o`zida ishonch mustaqil kurashuvchanlik hislatlari pasaygan.

Talabchanlik-tajovuzkorlik hislatlari bo`yicha tajriba guruhda 1-bosqichda 8,7 ballga ega bo`lsa, 2-bosqichda 6,7 balldan iboratdir. Olib borgan tadqiqot ishlarimiz bu oktanda berilgan harakter hislatlarning, ya`ni xaddan ortiq qaysarlik, o`zini tuta olmaslik, tundlik hislatlari pasayganligini ko`rsatadi. Nazorat guruhlarida esa 1-bosqichda bu hislat 7,1 ballni ko`rsatgan bo`lsa, 2-bosqichda 8,2 ballga tengdir. Ya`ni xaddan ortiq qaysarlik, jahldorlik, o`zini tuta olmaslik va tundlik illatlari ortgan.

Ishonchsizlik-shubhalanuvchanlik hislatlari tajriba guruhda 1-bosqichda 6,8 ballni tashkil etgan bo`lsa, 2-bosqichda 8,2 ballni ko`rsatdi. Nazorat guruhda 4,7 ballga barobar bo`lsa, 2-bosqichda 7,2 balldan iborat. Ya`ni har ikkala guruhdagi ballar miqdori 1-bosqichdan 2-bosqichga ortib borgan. Bu ikki guruh o`quvchilarda shubhalanuvchanlik, kelisha olmaslik hislatlari pasaygan, fikrlar va xatti-harakatlarning aniqligi ortgan.

Uyatchanlik-yuvoshlilik hislatlari tajriba guruhda 1-bosqichda 9,1 ballni tashkil etgan bo`lsa, 2-bosqichda 10,9 ballga tengdir. Ya`ni o`quvchilardagi

itoatkorlik, buysunuvchanlik, o`zini aybdor deb bilish o`zini boshqalardan ustun qo`ymaslik, bosiqlik hislatlari rivojlangan. Nazorat guruhda bu xususiyat 2-bosqichda 8,3 ballni ko`rsatgan. Ya`ni bu guruh, o`quvchilarning xarakterida itoatkorlik, bo`ysunuvchanlik, bosiqlik hislatlarining pasayishini hamda o`z aybini bo`yniga olmaslik kabilar rivojlanganligidan darak beradi.

Ishonuvchanlik-tobelik hislatlari tajriba guruhida 1-bosqichda 10,1 ballni tashkil qilgan bo`lsa, 2-bosqichda 10,7 balldan iboratdir. Ya`ni tobelik o`ta buysunuvchanlik hislatlarini rivojlanganligini bildiradi. Nazorat guruhida esa ballar miqdori har ikki bosqichda ham 10,2 ballni ko`rsatgan ya`ni bu guruh, o`quvchilarida bo`ysunuvchanlik har ikkala bosqichda ham bir xil rivojlangan.

Rahmdillik-hamkorlik hislati 1-bosqichda tajriba guruhida 10,8 ballni tashkil qilgan bo`lsa, 2-bosqichda 11,2 ballga tengdir ya`ni bu guruh o`quvchilarida o`ta kelishuvchanlik, kamkorlik, shaxsiy do`stligini bildirib turish, boshqalar manfaati uchun tinmasligi kabi hislatlar shakllangan. Nazorat guruhida ham xlr ikkala bosqich natijalarining miqdori ortganligini ko`rishimiz mumkin. 1-bosqichda bu hislat 9,7 ballga barobar bo`lsa, 2-bosqichda 9,9 balldan iborat. Ya`ni olingan ballar bu hislatni nazorat guruh o`quvchilarida ham rivojlanganligini ko`rsatadi.

Xushmuomilalik-fidoyilik hislatlari tajriba guruhda 1-bosqichda 10,4 ballni ko`rsatsa, 2-bosqichda esa 11,8 ballni bergan. Ya`ni o`quvchilar harakteridagi ko`ngilchanlik, o`ta javobgarlik, mas`uliyatlilik, o`zgalar manfaati uchun kurashish, al`truizm kabi hislatlar rivojlanganligini ko`rdik. Nazorat guruh o`quvchilarida har ikkala bosqichda ballar miqdori 10,2 ballni tashkil qilgan.

Bu shakllantiruvchi bosqichdan olingan natijalar shundan dalolat beradiki, milliy urf-odat va an`analar o`quvchi xulq-atvorining shakllanishiga ijobiy ta`sir qiladi, umuman, sifat o`zgarishini keltirib chiqaradi. Masalan bu tadqiqotimiz tajriba guruh o`quvchilari xarakterida o`ziga ishonch, mustaqil kurashuvchanlik, mustaqil fikrlash, xatti-harakatlarning realligi, vazminlik, fidoyilik, itoatkorlik,

boshqalar manfaati uchun tinmaslik, mas'uliyatlilik, al'truizm kabi ijobiy hislatlarni rivojlantirgan bo'lsa, qaysarlik, o'zini tuta olmaslik, jahldorlik, tundlik kabi hislatlarni susaytirgan. Lekin tobelik, o'ta ishonuvchanlik kabi hislatlarni rivojlantirgan. Chunki milliy urf-odatlarimizda shunday odatlar borki, ular tobelik, o'ta bo'ysunuvchanlik hislatlarini rivojlantiradi.

Nazorat guruhdagi olingan natijalarga e'tibor beradigan bo'lsak, bu guruh o'quvchilari hulq atvor tasavvurlarining shakllanishi bilan xulq-atvorlarida ham o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin, chunki nazorat guruhidagi odatdagi o'quv mashg'ulotlar ham o'quvchilarning ma'naviyatiga ma'lum darajada ta'sir etadi

TAVSIYALAR

Olingan natijalardan kelib chiqib, maktabda ta'lim-tarbiyani takomillashtirishda, dars va darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchilar faoliyatini tashkil etishda ota-onalarga, o'quvchilarga va maxallaning jamoatchi faollariga quyidagi tavsiyalarni taqdim etamiz:

-sharq xalqlari, jumladan, o'zbek xalqining qadimiy urf-odatlarini, an'alarining ilk ildizlari, ularning taraqqiyot bosqichlari, shaxs ta'lim-tarbiyasiga ta'siri, bugungi kunda shakllangan umuinsoniy, milliy, hulq atvor qadriyatlarida saqlanib qolgan ba'zi bir odatlarning tarbiyaviy ahamiyatini belgilab, tarbiya va o'qitishda foydalanish (ota-onalar, o'qituvchilar) joiz;

-qadimiy ahloqiy qonun-qoidalarining islom dini ahloqiy qonun-qoidalariga asos bo'lishi va ularning hozirgi zamon ta'lim tarbiya tizimidagi o'rni aniq, o'quv jarayonida qo'llash (o'qituvchilar) lozim;

- kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning hulq atvor tasavvurlarida ijobiy sifatlarni shakllantirishda ta'sir etuvchi omillarning ahamiyatini, o'rni unytmaslik, ularda milliy urf-odatlarini ta'minlash (tarbiyachi va o'qituvchilar) maqsadga muvofiq;

-milliy urf-odat va an'analarning mohiyatini ochib berishda noan'anaviy darslarni tashkil qilish (o'qituvchi);

-o'quvchi xulq-atvoridagi ijobiy tomonlarga tayanib, illatlarni bartaraf etishni amalga oshirish (ota-onalar, mahalla jamoatchiligi);

-mahalladagi ilk o'spirin o'quvchilar va ular bilan uyushtiriladigan tadbirlarni amalga oshirishning mahalla jamoatchiligi o'z e'tiboridan chetda qoldirmaslik (mahalla jamoatchiligi);

-bola xulq-atvorida ijobiy sifatlari shakllantirish uchun ota-onalar, maktab jamoatchiligi va max«alla hamkorligini tashkil etish;

-milliy an'alarimiz yoritilgan badiiy asarlarni mutolaa va tahlil qilish, ular orasida sahnaviy ko'rinishlar, turli viktorinalar, baxslarni tashkil etish (o'qituvchilar) ma'qul;

-qadimiy milliy obidalarimizga va muqaddas qadamjolarga sayohat qilish (o`qituvchilar, ota-onalar);

-o`quvchilarning uchrashuv va sayohatdan olgan taassurotlarini birgalikda muhokama qilish (o`qituvchilar, ota-onalar);

-dars davomida o`quvchining mustaqilligi, erkinligini, faolligini uzliksiz ravishda ta`minlash (o`qituvchilar);

-o`quvchilarning milliy qadriyatlar borasidagi o`z qarashlari bilan ommaviy axborot vositalarida qatnashib turishlarini (o`qituvchilar) yo`lga qo`yish;

-oilada amal qilinayotgan urf-odatlar va an`analarning nima uchun qo`llanilishi, milliy urf-odatlarni diniy urf-odatlaridan farqlay olishga erishish (ota-onalar) kabilar tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda tavsiya etiladi.

XULOSA

O`quvchining xulq atvor tasavvurlari juda ko`p psixolog olimlar tomonidan yoritilganligiga qaramasdan, bu muammoning fanda hali ishlanmagan muayyan qirralari mavjuddir. Hozirgi davrda milliy qadriyatlarga nisbatan e`tiborning ortganligi tufayli milliy xarakter, milliy qiyofa, milliy his-tuyg`ularga qiziqish ko`chayayotganligini ko`rish qiyin emas. Shuning uchun biz o`z tadqiqotimizda mana shunday muammolarga oid shaxsiy izlanishlarimizni amalga oshirdik.

Kichik maktab yoshidagi o`quvchilarning xulq atvor shakllanishida tashqi muhitning, ya`ni milliy an`ana va urf-odatlarining ta`siri uqidagi mavjud qarashlar, nazariyalar va yo`nalishlar tahlili bu muammoni davr uchun dolzarb ekanligini dalillab berdi.

Birinchidan, tajriba natijalariga ko`ra, xulq atvor tasavvurlari faoliyatning u yoki bu turiga nisbatan munosabatida aks etishidan kelib chiqib, milliy an`ana va urf-odatlarga ilk o`spirinlarning munosabatini tekshirish, ular xulq-atvorida namoyon bo`ladigan kelishuvchanlik, hukmronlik, mustaqillik, mas`uliyatlilik, bo`ysunuvchanlik, hamkorlik, tobelik, uyatchanlik, shubhalanuvchanlik, ishonchsizlik, jamoatchilik, tashkilotchilik singari hislatlar ustuvorligi namoyon bo`ldi.

Ikkinchidan, shaxs xulq atvor tasavvurlarining shakllanishi uning xulq-atvorida ma`lum sifatlarni namoyon qilish mumkinligi borasidagi mustaqil davlatlar xamdo`stligi mamlakatlari va respublikamiz olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy nazariyalar va ilmiy qarashlarga tanqidiy yondoshildi va o`rganildi. Ularning bu borada olib borgan ilmiy ishlarining salmog`i belgilandi.

Uchinchidan, kichik maktab yoshidagi o`quvchilarning xulq atvor tasavvurlariga milliy an`analar va ijtimoiy omillar ta`sirini o`rganishning muhim metodologiyasi hamda tadbqiq etish usullari maqsadli tarzda ishlab chiqildi. Aniq maqsad va mazmunga ega ijtimoiy ta`sirlar dars va darsdan

tashqari tashkil etilgan tadbirlar o`quvchilar hulq atvor tasavvurlariga bevosita ta`sir etishi va undagi adaptiv-o`zgaruvchan va moslashuvchan sifatlarini shakllantirishi isbot qilindi. Ya`ni adaptiv hislatlarning ayni vaziyatlarda takrorlanishi shaxsning hulq atvor fazilatlarini shakllanishiga asos bo`ldi.

To`rtinchidan, mahalla, oila, maktab muhitida milliy urf-odat va an`analar o`spirin hulq atvor tasavvurlaridagi barqaror hislatlar shakllanishi uchun shart-sharoit ekanligi nazariy va amaliy jihatdan isbotlandi. Olingan natijalar tahliliga qaraganda, oila ta`sirida kelishuvchanlik, bo`ysunuvchanlik, tobelik, uyatchanglik, itoatkorlik hislatlarining shakllanishi muqarrardir. Tajribalarda to`plangan ma`lumotlarga binoan maktab va mahalla jamoatchiligi ta`sirida hukmronlik, mustaqillik, hamkorlik, javobgarlik, mas`uliyatlilik, ustunlik, kelishuvchanlik, boshliqlik, rahbarlikka intilish, xushchaqchaqlik, vazminlik kabi hislatlar, shuningdek, shaxsning o`z-o`ziga bo`lgan munosabatini ifodalovchi manmanlik, shubhalanuvchanlik, ishonchsizlik kabi illatlar o`spirinlar xulq-atvorida shakllanishi ko`zga tashlandi. Etik suhbatlarda milliy odob-ahloq namunalari aks etgan materiallar, donishmandlarning tarbiya borasidagi qarashlari, rivoyat va afsonalari, o`quvchilarning fikr-mulohazalari, uni o`z xatti-harakatiga tadbiiq qilishlari kuzatildi. Bularning barchasi ilgari surilgan gipotezalarning tasdiqlanishiga to`la imkon yaratdi. Darslardagi milliy urf-odatlar, udumlar aks etgan o`zbek yozuvchilarining asarlaridagi milliy xususiyatlarga e`tibor hozirgi kunimizdagi urf-odatlariga solishtirilib, xalqimiz tomonidan ularga amal qilinayotganligi, o`quvchilar esa ularga bevosita kundalik xayotda ahamiyat berayotganliklari tug`risidagi fikrlar ijobiy ta`sir natijasidir. Asar qahramonlarining milliy madaniyati va ma`naviyatiga alohida e`tibor berilib, hozirgi kundagi kishilar hulq atvor tasavvurlari bilan solishtirilishi evaziga sinaluvchilarda milliylik tuyg`usi shakllandi. Mashg`ulotlardagi o`zbek milliy urf-odatlari va udumlarining kelib chiqishi, mohiyati, kishilar xulqini boshqarishdagi roli to`g`risidagi ma`lumotlar, rolli o`yinlar ularda hulq atvor tasavvurlarini barqarorlashtirishga ta`sirchan vosita ekanligini ko`rsatdi. Mahalla jamoatchiligi ta`sirida uning faollari ko`magi bilan

uyushtirilgan ijtimoiy faollikka etaklovchi tadbirlar (hasharlar) taqlid, ta'sirot, ta'sirga berilish vositalari ijobiy hislatlar tarkib toptirishga olib kelishi dalillandi. Noan'anaviy darslar ta'sirida o'quvchilarni mustaqil dars tashkil qilishlari, faol ishtirok etishlari, mavzuga oid adabiyotlarni mustaqil ravishda o'rganishlari, o'z fikrlarini bayon etishlari, o'zaro qo'llab-quvvatlashlari, o'rtoqlari fikrini tinglashlari va mulohaza qilishlari hulq atvor tasavvurlari shakllanayotganligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A «Istiqlol va ma`naviyat». «O`zbekiston», 1994,-160 s.
2. Karimov I.A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q". Toshkent, «Sharq» 1998,-31.
3. Karimov I.A. "O`zbekiston buyuk kelajak sari". Toshkent, 1998-686 s.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent, «Sharq» 1999.-184s.
5. Abduraxmonov F.R. Mustaqillik va milliy manfaatlar. Toshkent «Fan» 1994. 108s.
6. Avloniy A. Turkiy guliston, yoxud ahloq. Toshkent, "O`qituvchi", 1992 -59 s.
7. Axunjanova S.A. Vliyanie rolevoy pozitsii rebenka v rodnoy sem`e na formirovanie ego xaraktera. Etnopsixologicheskie probleme`uzbekskoy sem`i. Resp. nauchno-prak. konf. Toshkent, 1993-70-73 s.
8. Beruniy A.R. "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", Toshkent, "Fan" TA, 1-tom, 1969 -488 s.
9. Beruniy A.R. TAT 2-tom, O`zSSR Toshkent, "Fan" 1969 -538 s.
10. Bobur Z.M. "Boburnoma" Toshkent, "Yulduzcha", 1989 -368 s.
11. Buriev M. Navro`z tarixidan lavxalar, Toshkent, "O`zbekiston", 1990.
12. Davletshin M.G. Abduraxmonov F. R. Qadimgi sharq mamlakatlarida psixologik fikrlar taraqqiyoti. Toshkent, 1995. -26 s.
13. Davletshin M.G. Oiladagi nizolar psixologiyasi va uni bartaraf etish yo`llari. / O`zbek oilasining etnopsixologik muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi / Toshkent, 1993,-ZZs.
14. Davletshin M.G., Shoumarov G.B. Zamonaviy o`zbek oilasining etnopsixologik muammolari. / Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi / Toshkent, 1993. -3-7 s.
15. Jabborov I. O`zbek xalqi etnografiyasi. Toshkent, "O`qituvchi", 1994.-320 s.

16. Jumaev A.Sh. Obo`chai i obryadi uzbekov i tadjikov buxarskogo oazisa, svyazanno`e s rojdeniem i vospitaniem detey. Avtoref. kand. filos. nauk. Toshkent, 1991.-18 s.
17. Maxmud S. O`zbek udumlari. Toshkent, "Fan", 1993. -230 s.
18. Munnavarov A.K. Oila pedagogikasi. Toshkent, "O`qituvchi",1994.-112 s.
19. Oila ahloqi va odobi. Majmua. Toshkent, "O`qituvchi", 1995.-192.
20. Otajonov M.Yu. Psixologik bilimlarning tarixiy falsafiy asoslari. Farg`ona: 1995. -153.
21. Sarimsakov B. O`zbek marosim fol`klori. Toshkent, 1986. -76.
22. Temurova S. Bolalarni progressiv an`analar namunalarida tarbiyalash. Toshkent "O`qituvchi", 1980. -88 s.
23. Tokareva V.A. Aytmetova S.Sh. Metodika psixologicheskogo izucheniya shkol`nikov. Toshkent, "Uqituvchi", 1980.-88 s.
24. Tokareva V.A. O sotsial`no-psixologicheskix problemax formirovaniya nravstvennix kachestv lichnostey // sotsial`no- psixologicheskie problemn formirovaniya lichnosti. Toshkent, 1986.
25. Tokareva V.A Psixologiya nravstvennogo razvitiya lichnosti studenta. Toshkent, "Fan" 1989.
26. Xayrullaev M. Farobi epoxa i uchenie. Toshkent, "O`zbekiston", 1975.-352 s.
27. Xolikov D.R. O`quvchilarni milliy urf-odatlar asosida oilaviy hayotga tayyorlash. Dissert. kand. pedagog. nauk. 1993.-150 s.
28. Xudoyberdiev I. Islom, shaxs va milliy psixologiya. Toshkent, "O`zbekiston", 1994.-72 s.
29. Shaniyazov V.K. K etnicheskoy istorii uzbekskogo naroda. Toshkent, 1974.-342 s.
30. Shapiey V. Sootnoshenie natsional`nogo i religioznogo v obo`chayax i traditsiyax. Avtoref. kand. filos. nauk. Toshkent, 1991.-21

31. Sharipov S.A. Traditsionno`e i novo`e prazdniki i obryado` v bo`tu uzbekov. Avtoref. kand. filos. nauk. Toshkent, 1991.-18 s.
32. Sharipova D. Nravstvennoe vospitaniie uchashixsya. Toshkent, "O`qituvchi", 1983.-180 s.
33. Sherbaev I.Sh. Oilada bolalar tarbiyasida xalk traditsiyalari. Toshkent, "O`qituvchi", 1969.-124 s.
34. Shoumarov G.B., Sharipova D. Oila etikasi va psixologiyasi. Toshkent, "O`qituvchi", 1991.
35. Shoumarov G.B., Shoumarov B.Sh. Muhabbat va oila. Toshkent, "Ibn Sino", 1994. -120 s.
36. Ermatov M. Etnogenez i formirovanie predkov uzbekskogo naroda. Toshkent, "O`zbekiston" 1968.-199 s.
37. Qayumov A. Obryado` i vremya. Toshkent, "O`qituvchi", 1986.-89 s.
38. Qodirov B.R. Sposobnosti i sklonnosti. Toshkent, "Fan", 1990.-105 s.
39. Qoraboev U. O`zbekiston bayramlari. Toshkent, "O`qituvchi", 1991.-192 s.
40. G`oziev E.G. O`zbek xalqining etnopsixologiyasi va bola tarbiyasi. / O`zbek oilasining etnopsixologik muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Toshkent, 1993. 8-9 s.
41. G`oziev E.G. Tafakkur psixologiyasi. Toshkent, "O`qituvchi", 1990.-184 s.
42. G`oziev E.G. Psixologiya. Toshkent, "O`qituvchi", 1991.-220.
43. G`ofurov G. Udumlarda xalq qalbi.Toshkent,"Yosh gvardiya",1986.-5 s.
44. Hadis namunalari. Toshkent, "Fan", 1990.-168 s.